

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 85 (1684), 2026-yil 30-aprel, payshanba

www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news



GIDROENERGETIKA SOHASIDA ZAMONAVIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISH REJALARI KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-aprel kuni gidroenergetika sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

O‘zbekistonda 150 ming kilometrdan ortiq daryolar, soylar va kanallar mavjud. Bu manbalar nafaqat ichimlik suvi va sug‘orish, balki energetika, iqtisodiyot hamda ekologiya nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.

Bugungi kunda elektr energiyasi ishlab chiqarishning katta qismi tabiiy gaz va ko‘mirga bog‘liq. Gidroenergiya ulushi esa 10-12 foiz atrofida. Shu bois, gidroenergetikani rivojlantirish energiya tizimini barqarorlashtirish, yoqilg‘i resurslariga bog‘liqlikni kamaytirish va suv resurslaridan samarali foydalanishda muhim o‘rin tutadi.

So‘nggi yillarda sohada salmoqli natijalarga erishildi. 2017-yilda 36 ta bo‘lgan gidroelektr stansiyalar soni 2025-yilda 100 taga yetkazildi. Ularning umumiy quvvati 1,6 gigavatt dan 2,4 gigavattgacha oshdi.

Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan gidroagregat va texnologik uskunalari ishlab chiqaruvchi “UzHydroPower” zavodi tashkil etildi. O‘tgan yili ishga tushirilgan Norin GESlar kaskadining birinchi bosqichi ilk marotaba “milliy loyiha” modeliga asosan amalga oshirilib, barcha jarayonlar to‘liq mahalliy korxonalar tomonidan bajarildi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz gidroenergetika salohiyatining katta qismi hali ishga solinmagani qayd etildi. Aholi va iqtisodiyot o‘shishi bilan elektr energiyasiga

talab oshib borayotganini hisobga olib, bu salohiyatdan to‘liq, har bir daryo, soy va kanallarda foydalanish hamda yangi quvvatlarni jadal ishga tushirish zarurligi ta’kidlandi.

Taqdimotda 2026-2032-yillarda umumiy qiymati 5,8 milliard dollar bo‘lgan 73 ta istiqbolli loyihani amalga oshirish rejalari ko‘rib chiqildi. Buning natijasida qo‘shimcha 3,6 gigavatt quvvat yaratilishi kutilmoqda.

Joriy yilda 13 ta GESni foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Ularning umumiy quvvati 114 megavatt, yillik ishlab chiqarish hajmi esa 537 million kilovatt-soatni tashkil etadi. Mazkur loyihalar doirasida 254 ta ish o‘rni yaratiladi. Bunga qo‘shimcha Bo‘stonliq tumanida 28 million dollarlik grantlar hisobidan 20 megavatt quvvatli shamol elektr stansiyasi qurilmoqda.

Yirik loyihalar qatorida Bo‘stonliq tumanidagi Yuqori Pskom GES qurilishi alohida ahamiyatga ega. Qiymati 365 million dollar bo‘lgan mazkur loyihaning quvvati 160 megavatt, yillik ishlab chiqarish hajmi 484 million kilovatt-soat bo‘ladi. Bu 161 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlash imkonini beradi. Loyihada mahalliy komponentlar ulushi 82 foizni tashkil etadi.

Farg‘ona viloyati So‘x tumanida “milliy loyiha” tamoyili asosida So‘x GES qurilishi rejalashtirilgan. Quvvati 15 megavatt bo‘ladigan ushbu stansiya yiliga 50 million

kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, tumandagi elektr ehtiyojining 71 foizini barqaror ta’minlashga xizmat qiladi.

Yuqori To‘palang hududining gidroenergetika salohiyati ham ko‘rib chiqildi. “To‘palang” suv omboriga quyuladigan daryo va soylarda 42 ta kichik GES qurish orqali 541 megavatt quvvat yaratish, yiliga qariyb 1,9 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

Dunyo amaliyotida gidro to‘plash elektr stansiyalarini qurish orqali energiyani saqlash va qayta taqsimlash tizimlari keng joriy etilayotgani ta’kidlandi. Mamlakatimizda ham ilk bor umumiy quvvati 1,4 gigavatt bo‘lgan 3 ta shunday stansiyaning barpo etish imkoniyatlari ko‘rib chiqilmoqda.

Shuningdek, umumiy quvvati 164 megavatt bo‘lgan 2983 ta kichik va mikro GES qurish rejalari muhokama qilindi.

Raqamlashtirish va sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish ham soha samaradorligini oshirishning muhim yo‘nalishi sifatida belgilandi. Suv omborlari va gidroinshootlarda suv sathi, suv hajmi, bosim, meteoma‘lumotlar va ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn kuzatish imkonini beruvchi raqamli monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Hozirda suv omborlarining xavfsizligini ta’minlash uchun 3,5 mingta nazorat-o‘lchov apparatlari o‘rnatilgan.

Davlatimiz rahbari gidroenergetika sohasidagi loyihalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, mahalliy lashtirish darajasini oshirish bo‘yicha mutasaddilarga aniq topshiriqlar berdi.

Taqdimotda poytaxt hududidagi daryo va kanallar bo‘ylarini obodonlashtirish, shaharda salqin mikroqilm yaratish maqsadida sun‘iy ko‘l va havalzar barpo etish bo‘yicha ishlar to‘g‘risida ham axborot berildi.

Jumladan, Chirchiq daryosining poytaxt hududidan o‘tuvchi 16 kilometr qismini obodonlashtirish hisobiga 306 gektar yer maydonida “Daryo bo‘yi” loyihasi amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

Loyiha doirasida daryo qirg‘oqlarini mustahkamlash, yashil hududlar barpo etish, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarini joylashtirish ishlarini amalga oshiriladi. Bektimir kanali bo‘yida 187,3 gektar maydonida “yashil belbog‘” yaratiladi, sayilgohlar barpo etiladi. Piyodalar va veloyol‘aklar, ichki yo‘llar, yoritish tizimlari hamda ko‘priklar quriladi.

Poytaxtda 4 ta sun‘iy ko‘l va suv havalzarini tashkil etish loyihasi ham taqdimot qilindi. Prezidentimiz aholi uchun qulay sharoitlar, shaharda salqin mikroqilm yaratishga bu kamlik qilishini qayd etib, ko‘llar sonini 12 taga yetkazishni topshirdi.

O‘ZA

CHEXIYA RESPUBLIKASI BOSH VAZIRI O‘ZBEKISTONGA KELDI

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish 29-aprel kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.

Oliy martabali mehmonni “Toshkent-Humo” xalqaro aeroportida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish ishtirok etdi.

Shundan so‘ng Oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Mamlakatimiz o‘tmishi va kelajagi timsoli sanalgan Mustaqillik monumenti Yangi O‘zbekiston ma’naviyatining gultojidir. U yerda kamolot sohiblari bo‘lmish ajdodlarimiz siymosi aks etgan.

Chexiya Bosh vaziri umrini yurt taraqqiyoti, el farovonligi yo‘lida ilm-ma’rifat bilan o‘tkazgan ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Yurtimiz tarixi, dunyo tamadduniga hissa qo‘shgan bobolarimiz ma’rifati haqida ma’lumot berildi.

Toshkent shahrida Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasida ikki davlat ishbiarmon doiralari qo‘shma biznes forumi o‘tkazildi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov va Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish ishtirok etdi.

Forumda ikki mamlakatning yetakchi sanoat korxonalarini, investitsiya kompaniyalarini va moliyaviy tuzilmalarini vakillari jam bo‘ldi. Xususan, Chexiya delegatsiyasi tarkibidan mashinasozlik, energetika, kimyo, farmatsevtika va transport-logistika sohaslarida faoliyat yurituvchi 50 dan ortiq yirik kompaniya rahbarlari joy oldi.

Ta’kidlanganidek, so‘nggi sakkiz yil ichida O‘zbekiston va Chexiya o‘rtasidagi tovar ayiriboshlash hajmi ikki barobarga oshdi. Bugungi kunda mamlakatimizda Chexiya kapitali ishtirokida 36 ta qo‘shma korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Farmatsevtika, oziq-ovqat sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish va turizm sohaslarida o‘zaro hamkorlikning muvaffaqiyatli yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Davomi 2-beta

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

UMUMXALQ BIRDAMLIGI IFODASI, MILLIY RIVOJLANISHNING STRATEGIK KAFOLATI



Milliy suverenitet va davlat mustaqilligi har qanday mamlakat taraqqiyotining fundamental asosini tashkil etadi. Ushbu omillar siyosiy barqarorlikni ta’minlash, ijtimoiy taraqqiyotni izchil yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish hamda milliy madaniyat va qadriyatlarini asrab-avaylashning hal qiluvchi sharti etib belgilangan. Ayni paytda mustaqillik davlatning xalqaro huquqning to‘laqonli subyekti sifatida shakllanishi, global maydonda o‘z manfaatlarini himoya qila olishi va munosib o‘rin egallashini ta’minlaydi. Shu nuqtayi nazardan, mustaqillik nafaqat siyosiy maqom, balki xalq farovonligi va milliy rivojlanishning strategik kafolati deb baholanishi lozim.

Mustaqillik O‘zbekiston taraqqiyotida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. U faqat siyosiy tizim yangilanishi bilan cheklanib qolmay, iqtisodiy munosabatlarni, jamiyatning ma’naviy-axloqiy asoslarini va ijtimoiy institutlarning tubdan qayta shakllanishini ham anglatadi. O‘tgan davrda mamlakat rejali iqtisodiyot modelidan bozor tamoyillariga asoslangan tizimga bosqichma-bosqich o‘tdi, davlat va jamiyat boshqaruvining demokratik institutlari shakllantirildi, fuqarolik jamiyatining institutsional asoslari yaratildi. Shu bilan birga, mazkur jarayonlar murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda, tashqi iqtisodiy bosimlar, global raqobat va geosiyosiy o‘zgarishlar ta’sirida amalga oshirilganini alohida ta’kidlash zarur.

2016-yildan boshlab Prezidentimiz rahbarligidagi islohotlar mamlakat taraqqiyotida yangi sifat bosqichini boshlab berdi. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida ilgari surilgan islohotlar davlat boshqaruvini liberallashtirish,

iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va jamiyat hayotining barcha sohasida ochiqlikni ta’minlashga qaratildi. Xususan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining ishlab chiqilishi, tashqi siyosatda pragmatik va ochiq yondashuvning kuchayishi, investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi mamlakatimizning barqaror va jadal rivojlanishini ta’minlayotgan muhim omillardir.

Natijada O‘zbekiston so‘nggi yillarda nafaqat milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, balki mintaqaviy va global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etuvchi davlat sifatida pozitsiyasini mustahkamlamoqda. Bu esa mustaqillik yillarida tanlangan taraqqiyot yo‘lining strategik jihatidan to‘g‘ri va uzoq muddatli manfaatlariga xizmat qilayotganini ko‘rsatadi.

Endi iqtisodiy ko‘rsatkichlarga murojaat qilish orqali islohotlarning amaliy natijalarini

baholash mumkin. 2026-yilning birinchi choragida mamlakatimiz iqtisodiyoti barcha asosiy yo‘nalish bo‘yicha barqaror o‘shish dinamikasini namoyon etdi. Xususan, yalpi ichki mahsulotning 8,7 foizga o‘shishi nafaqat milliy miqyosda, balki global iqtisodiy vaziyat nuqtayi nazaridan ham yuqori ko‘rsatkichdir. Bugun rivojlanayotgan mamlakatlarda o‘rtacha iqtisodiy o‘shish sur‘ati 4-5 foiz atrofida shakllanayotganini inobatga olsak, mazkur natija ichki iqtisodiy faollikning sezilarli darajada oshgani va islohotlarning muayyan samara berayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bunday yuqori o‘shish sur‘atining barqarorligi masalasi alohida tahlilni talab qiladi. Chunki qisqa muddatli “sakrash”lar emas, balki uzoq muddatli trendlar hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tarmoqlar kesimidagi tahlil iqtisodiy o‘shish manbalarini yanada aniq ochib beradi. Xizmatlar sohasining 16,1 foiz o‘shishi iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar chuqurlashayotganini anglatadi.

Zamonaviy iqtisodiyotda aynan xizmatlar sektori yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish, yangi ish o‘rinlari tashkil etish va innovatsiyalarni joriy qilishda yetakchi o‘rin tutadi.

Sanoat ishlab chiqarishining 8, qishloq xo‘jaligining esa 5,1 foiz o‘shishi iqtisodiyotning nisbatan muvozanatli rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Bu holat bir tarmoqqa ortiqcha bog‘lanib qolish xavfini kamaytiradi va tashqi shoklarga nisbatan barqarorlikni oshiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikani aks ettirmoqda. Eksport hajmi 5,8 milliard, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar esa 13,7 milliard dollarni tashkil etdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan inflyatsiya darajasining 7,1 foizga tushgani alohida ahamiyatga ega. Bu so‘nggi yillardagi pul-kredit siyosati va bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish chora-tadbirlarining natijasi sifatida baholanishi mumkin.

Davlat moliyasi sohasidagi ko‘rsatkichlar ham ijobiy tendensiyani namoyon etmoqda. Jumladan, birinchi chorakda budget daromadlari o‘tgan yildagiga nisbatan 35 foiz o‘shib, 103 trillion so‘mga yetdi. Mahalliy budgetlarda qo‘shimcha 2,2 trillion so‘m mablag‘ shakllantirildi, shundan 1,4 trillion so‘mning tuman va shaharlar ixtiyorida qoldirilgan moliyaviy nomarkazlashtirish siyosati izchil yuritilayotganini ko‘rsatadi. Bu esa hududlarning iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish, joylarda tashabbuskorlikni kuchaytirish va resurslardan samarali foydalanish uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Iqtisodiyotdagi eng muhim tizimli islohotlardan biri xususiy lashtirish jarayonini jadallashtirishdir. Bugun iqtisodiyotda davlat ulushi 42 foizni, davlat ishtirokidagi korxonalar soni 1685 tani tashkil etmoqda. So‘nggi besh yilda xususiy lashtirish natijasida davlat korxonalar soni 60 foiz kamaydi. Bu nihoyatda muhim iqtisodiy o‘zgarishdir.

Keyingi besh yilda davlat korxonalarini sonining 60 foiz qisqargani islohotlar dinamikasi sezilarli darajada tezlashganini anglatadi. Xususan, o‘tgan yilda qariyb 30 trillion so‘mlik davlat aktivlarining xususiy sektorga o‘tkazilishi va budjetga 10 trillion so‘m dan ortiq tushum kelib tushgani ushbu jarayonning fiskal samarasini namoyon etadi. Shu bilan birga, yer uchastkalarini sotishdan 6 trillion so‘mlik mablag‘ shakllangan aktivlarni bozor mexanizmlari orqali taqsimlash amaliyoti kengayib borayotganini ko‘rsatadi.

Davomi 3-beta



Lyubomir FREBORT:

“CHEXIYA O‘ZBEKISTON BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARIGA USTUVOR AHAMIYAT BERADI”

Chexiya Bosh vaziri Andrey Babishning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi arafasida “Dunyo” AA muxbiri Chexiya elchisi Lyubomir Frebort bilan suhbatlashdi.

— So‘nggi yillarda O‘zbekiston — Chexiya o‘rtasidagi munosabatlarda sezilarli o‘shishga erishildi. Mutaxassislarimiz aytishicha, ikki davlatning o‘ziga yarasha yaxshi tarixi bor. Keling, suhbatimizni O‘zbekiston — Chexiya aloqalari asoslarida boshlasak.

— Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi aloqalar chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini to‘g‘ri ta’kidladim. Shu bilan birga, zamonaviy diplomatik munosabatlarni 1990-yillar boshlarida o‘rnatilganini eslatib o‘tmoqchiman.

Davomi 2-beta

ULKAN IMKONIYATLAR ISHLASHGA, IZLANISHGA CHORLAYDI



2026-yil 30-aprel, 85-son



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz_official

yuz.uz_news

yuz.uz_news

CHEXIYA RESPUBLIKASI

BOSH VAZIRI O'ZBEKISTONGA KELDI

Boshlanishi 1-betda

Muzokaralar davomida iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishning qator istiqbolli yo'nalishlari haqida so'z bordi.

Chexiya kompaniyalari mis va boshqa rangli metallarni qazib olish, ularni chuqur qayta ishlash hamda tog'-kon texnikalarini mahalliyashtirish loyihalariga taklif etildi.

Gidroelektr stansiyalar qurish, kogeneratsiya uskunalarini o'rnatish, sohani raqamlashtirish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha sheriklikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonning AT-parklari va sohadagi 100 mingdan ziyod mutaxassis salohiyatidan foydalanishda uchinchilarning bozori uchun qo'shma raqamli mahsulotlar yaratish imkoniyatlari muhokama qilindi.

Mamlakatimizdagi kimyo klasterlari negizida mineral o'g'itlar, polimerlar va maishiy kimyo vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shuningdek, farmatsevtika sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish yuzasidan fikr almashildi.

Ikki davlatning geografik joylashuvi strategik ahamiyatga ega ekan alohida qayd etildi. Bu O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi bozoriga, Chexiya uchun esa Markaziy Osiyo bozoriga chiqishda darvoza vazifasini o'taydi. Shu munosabat bilan paritet asosida savdo uylari va logistika markazlarini tashkil etish taklifi ilgari surildi.

O'zbekiston tomoni chexialik investorlar uchun maxsus sanoat

parklarida yaratilgan imkoniyatlar va Yevropa kompaniyalari uchun taqdim etilayotgan alohida imtiyozlarga to'xtalib o'tdi.

O'z navbatida, Chexiya Bosh vaziri o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga tayyorligini bildirib, aniq investitsiyaviy takliflarini taqdim etdi.

Forum yakunida ikki mamlakat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator muhim hujjatlar va bitimlarni imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babish nafaqat yuritmiz, balki butun dunyo gavhariga aylangan Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markaziga bordi.

Islom sivilizatsiyasi markazi ilmiy, ma'rifiy hamda tarixiy nuqtayi nazaridan o'tmish va bugunni bog'lovchi ko'prikdir. Bugun uning faoliyati butun dunyo diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Bu yerga tashrif buyuruvchilarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Majmua haqida tarqatma materiallar, broshuralar va kitoblarni nashr qilindi. O'zbekiston muzey amaliyotida ilk bor nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etilgan holda zamonaviy kimyo-fizik laboratoriyada barcha muzey ashyolarining kimyoviy tarkibi va yaratilganlik vaqti aniqlanib, ularning texnologik pasportlari tayyorlandi.

Xalqaro ISO standartlari asosida ekspozitsion raqamlashtirilib, yagona elektron platformaga joylashtirildi. UNESCO va IKOM talablari, shuningdek, jahonning eng mashhur muzeylari tajribasi asosida ekspozitsionlarning 8 yo'nalishdagi etiketaj etalonlari va tasniflari yaratildi. Har bir ekspozitsion QR-kodlar joylashtirilishi natijasida tashrif buyuruvchilar mobil telefon yoki planshet orqali ularning video va audio kontenti bilan dastlab 3 tilda, keyinchalik

esa 8 tilda tanishish imkoniga ega bo'ldi.

Bugun majmuada Britaniya, Luvr va Metropolitan muzeylaridagi kabi planshetlar orqali video hamda audio tanishuv, audiogidlar, radiogidlar va ma'lumot olish quloqchilaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Chexiya Bosh vaziri Andrey Babish jahon muzeylariga tenglasha oluvchi noyob durdonalarni saqlayotgan Islom sivilizatsiyasi ekspozitsionlari ko'zdan kechirib, ajdodlarimizning boy merosidan hayratga tushdi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 30-aprel kuni Toshkent shahrida oliy darajadagi muzokaralar bo'lib o'tadi, ko'p qirrali O'zbekiston - Chexiya hamkorligini yanada rivojlantirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

O'zaro savdoni ko'paytirish, mashinasozlik, "yashil" energetika, kimyo, farmatsevtika va transport sohalarida kooperatsiyani kengaytirish diqqat markazida bo'ladi. Madaniy-gumanitar va ta'lim sohalaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilinadi.

Xalqaro kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, ko'p tomonlama maydonlarda o'zaro qo'llab-quvvatlash yuzasidan ham fikr almashiladi.

Chexiya Respublikasi Bosh vaziri Andrey Babishning mamlakatimizga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ikrom AVVALBOYEV, Abdulaziz RUSTAMOV, Marhabo HOJIAKBAROVA, O'ZA muxbirlari

Lyubomir FREBORT:

"CHEXIYA O'ZBEKISTON BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARIGA USTUVOR AHAMIYAT BERADI"

Boshlanishi 1-betda

Ular dastlab o'zaro hurmat, teng huquqli hamkorlik va har ikki tomonning milliy manfaatlarini hisobga olish tamoyillariga asoslanadi. Biz O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlaganini hurmat qilamiz, amalga oshirayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlaymiz. Prezident Shavkat Mirziyoyev janoblarining siyosatiga muvofiq, yangi O'zbekistonni barpo etishga ko'maklashishga doim tayyormiz.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zaro aloqalar, albatta, mustaqillikdan keyingi davr bilan cheklanmaydi. Xalqlarimiz o'rtasidagi hamkorlik ancha uzoq an'anaga ega. XIX asrdayoq chexialik taniqli olimlar va tadqiqotchilar hozirgi O'zbekiston hududiga tashrif buyurgan.

Bir necha ko'rgazmali misollar keltirishga ijozat bergaysiz. 1878-yilda Toshkentdagi hozirgi Amir Temur maydoni hududida joylashgan erkaklar gimnaziyasining birinchi direktori chex professori bo'lgan. Chexiyaning hissi O'zbekistonning zamonaviy infratuzilmasida



kompaniyalari O'zbekistondagi investitsiya imkoniyatlariga tobora ko'proq qiziqish bildirmoqda. Bunday dinamika tabiiy: mamlakatda investitsiya muhiti izchil takomillashib bormoqda, iqtisodiy islohotlar esa xorijiy investorlar, jumladan, chex biznesi uchun yanada shaffof va bashorat qilinadigan sharoitlarni yaratmoqda.



ham seziladi: bular, xususan, Urganch — Xiva yo'nalishida foydalanilgan "Skoda" trolleybuslari, Samarqanddagi tramvaylar, shuningdek, mamlakat aviatsiya parkida foydalaniladigan L-410 samolyotlaridir. Surxondaryo viloyatidagi qazishmalarida birga ishlayotgan arxeologlarning samarali hamkorligini alohida ta'kidlamoqchiman.

— **Chexiya Bosh vaziri Andrey Babish O'zbekistonga ilk bor rasmiy tashrif bilan keldi. Bu safarining asosiy maqsadlari nima? Chexiya tomoni qanday amaliy natijalarga umid qilmoqda? Muzokaralar davomida va ikki tomonlama bitimlarni imzolashda qaysi mavzular ustuvor bo'ladi?**

— Avvalo, ta'kidlamoqchiman, Bosh vazir Andrey Babishning tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirish uchun prinsipial ahamiyatga ega. Bu tanlov Chexiya rahbariyati O'zbekiston bilan munosabatlarga alohida ahamiyat berayotganidan yaqqol dalolat beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Chexiya bilan kengaytirilgan sheriklik formati amal qilayotgan Markaziy Osiyodagi yagona davlat bo'lib qolmoqda.

Iqtisodiyot an'anaviy ravishda ikki tomonlama hamkorlikning asosiy yo'nalishi bo'lib kelmoqda. Gap sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish, tovar ayirboshlash hajmini oshirish va sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish haqida bormoqda. Bosh vazir Andrey Babish hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy sohalarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan kun tartibi bilan keldi.

Ustuvor tarmoqlar orasida transport, sanoat, aviatsiya, mudofaa sanoati majmuasi va muhim infratuzilmani ajratib ko'rsatish mumkin. Energetika, qishloq xo'jaligi va hamkorlikni kengaytirish uchun amaliy asos mavjud bo'lgan boshqa qator yo'nalishlarda ham keng imkoniyat mavjud. Tashrif doirasidagi muzokaralar aynan shu sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilishi kutilmoqda.

— **So'nggi paytlarda O'zbekiston va Chexiya mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qilmoqda. Xususan, viza kvotasi allaqachon ajratilgan va Chexiya tomoni O'zbekistondan tibbiyot mutaxassislari jalb qilishga qiziqish bildirmoqda. Toshkentda bo'lib o'tadigan muzokaralar kun tartibiga ushbu mavzuni kiritish rejalashtirilayaptimi?**

— Bu haqiqatan ham muhim mavzu. Biz tibbiyot xodimlarining mehnat migratsiyasi sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishda yetakchi mamlakatlar tajribasini katta qiziqish bilan o'rnamoqdamiz. Xorijiy bozorlar talablarini hisobga olgan holda tibbiyot kadrlarini tayyorlash bo'yicha O'zbekiston tajribasi alohida qiziqish uyg'otmoqda.

Menga ma'lum bo'lganicha, Chexiya Bosh vaziri tashrifi dasturida tibbiyot xodimlarini tayyorlash, jumladan, chet tillarni o'rganish va xorijda ishlagan moslashishga qaratilgan ixtisoslashtirilgan o'quv markazlari bilan tanishish ko'zda tutilgan.

Ochiq aytish kerakki, Chexiyadagi demografik tendensiyalar parvarishlash va tibbiyot sohasida malakali kadrlarga barqaror talabni shakllantirmoqda. Keksa aholi ulushi ortishi obyekti ravishda sog'liqni saqlash tizimining kadrlar salohiyatini kengaytirishni taqozo etadi.

— **Chexiya kompaniyalari nuqtayi nazaridan O'zbekistondagi hozirgi investitsiya muhitini qanday baholaysiz? Chexiya bozoriga kirishdan manfaatdor bo'lgan o'zbekistonlik tadbirkorlar uchun, jumladan, "CzechInvest" agentligi orqali qanday qo'llab-quvvatlash vositalari mavjud?**

— Bu ham ikki tomonlama hamkorligimizning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Chexiya

Chexiya kompaniyalarini o'ziga jalb qiladigan omillar orasida makroiqtisodiy barqarorlik, barqaror o'sish sur'atlari, shuningdek, O'zbekistonning qo'shni davlatlar bozorlariga chiqish imkonini beruvchi qulay geostatistik joylashuvini alohida ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, Chexiya biznesining katta qismi uchun O'zbekiston bozori nisbatan yangi ekanini hisobga olish kerak.

Bosh vazir Andrey Babish tashrifining muhim elementi infratuzilmasi bilan tanishish, jumladan, texparkka tashrif buyurish bo'ladi. O'zbekiston kompaniyalarining Chexiyaga kiritayotgan investitsiyalariga kelsak, ular albatta qo'llab-quvvatlanadi. O'zbekistonning Chexiyadagi elchixonasi ochilishi kuchaytirilgan savdo-iqtisodiy blok bilan ushbu yo'nalishga qo'shimcha turki beradi. Bu o'zbek biznesining Chexiya va Yevropa bozorlariga chiqishini yanada samarali qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

O'zbekiston kompaniyalari muhim tarmoq tadbirlarida faol ishtirok etayotgani diqqatga sazovor. Xususan, Brno shahrida har yili eng yirik xalqaro mashinasozlik ko'rgazmasi o'tkazilib, unda so'nggi yillarda O'zbekiston milliy pavilyon bilan qatnashmoqda.

Standartlashtirish va metrologiya sohasidagi hamkorlik rivojini alohida ta'kidlash joiz. Tegishli idoralarning o'zaro hamkorligi zamonaviy laboratoriyalarni jihatlash va ilg'or texnik



reglamentlarni joriy etishga xizmat qiladi. Bu amaliy ahamiyatga ega: mahsulotlarni Yevropa sifat standartlariga moslashtirish o'zbek tovarlarining Yevropa Ittifoqi, jumladan, Chexiya bozoriga kirishini sezilarli darajada osonlashtiradi.

Umuman olganda, bugungi kunda O'zbekiston bozoriga chiqayotgan chex kompaniyalari uchun ham, Chexiyada ishlabdan manfaatdor bo'lgan o'zbek korxonalarini uchun ham biznesni qo'llab-quvvatlashning keng ko'lami vositalari ishga tushirilgan.

Alohida ta'kidlashni istardimki, Chexiya Bosh vaziri tashrifining muhim va ajralmas qismi Chexiya — O'zbekiston biznes forumi bo'lib, u delegatsiyaning amaliy tashrif dasturini o'chadi. Aynan shu maydondan ikki mamlakat ishbiarmon doiralari o'rtasida mazzamoli mulohat boshlanadi. Bosh vazir birtida Chexiyaning energetika, transport, mudofaa sanoati, qishloq xo'jaligi va boshqa muhim tarmoqlarda faoliyat yurituvchi yetakchi kompaniyalari rahbarlaridan iborat nufuzli guruh tashrif buyurmoqda. Ular uchun o'zbekistonlik hamkorlar bilan ikki tomonlama uchrashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsiya kun tartibi nuqtayi nazaridan, ishlab chiqilayotgan eng yirik loyihalardan biri

alohida e'tiborni tortadi. Gap nafaqat O'zbekiston temir yo'llari uchun elektropoyezdlar yetkazib berishni, balki O'zbekiston hududida qo'shma ishlab chiqarishni tashkil etishni ham ko'rib chiqayotgan "Skoda Transportation" kompaniyasi haqida bormoqda. Dastlabki bosqichda harakat tarkibini yig'ish, keyinchalik ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va qo'shni davlatlarga eksport qilish rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiya mexanizmini modernizatsiyalash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Chexiya tomoni an'anaviy ravishda iyun oyida bo'lib o'tadigan Toshkent xalqaro investitsiya forumida biznesning faol ishtirokini rejalashtirmoqda.

— **Qishloq xo'jaligining O'zbekiston uchun ahamiyatini hisobga olgan holda Chexiya texnologiyalarini joriy etish, xususan, suvni tejash, suvni tozalash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasida hamkorlik salohiyati qanday?**

— Savolingiz o'rinni. Darhaqiqat, qishloq xo'jaligi sohasidagi aloqalar O'zbekiston bilan hamkorlik kun tartibida muhim o'rinni tutadi va ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Chexiya tomoni qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohasida katta tajriba va texnologik yechimlarga ega.

Energiya va resurstejamkor texnologiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Gap bir vaqtning o'zida elektr energiyasi va issiqlik ishlab chiqarishni ta'minlaydigan kogeneratsiya qurilmalari haqida bormoqda. Bunday tizimlar qishloq xo'jaligi va chorvachilik chiqindilaridan olinadigan biogazda ishlash mumkin. Bu esa ularni ekologik jihatdan barqaror yechimga aylantiradi. Ular, ayniqsa, issiqxona xo'jaliklarida talabga ega bo'lib, xarajatlarni optimallashtirgan holda yil davomida ishlab chiqarishni ta'minlash imkonini beradi.

Sug'orish va suvni tejash tizimlari ham muhim yo'nalish bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish strategik ahamiyatga ega.

Qo'shimcha istiqbolli qishloq va chekka hududlarni energiya bilan ta'minlashga qaratilgan kichik gidroelektr stansiyalarni joriy etish bilan bog'liq.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi sohasi texnologik almashinuvdan tortib, qo'shma loyihalarni amalga oshirishgacha bo'lgan o'zaro manfaatli hamkorlik uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

— **Toshkent, Praga va Karlovi Vari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlar tiklanishi turizmini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Sayyohlik almashinuvi istiqbollari qanday baholaysiz?**

— Toshkent — Praga — Toshkent va Toshkent — Karlovi Vari — Toshkent yo'nalishlari bo'yicha ketma-ket uchunchi yil mavsumiy aviaqatnovlar yo'lga qo'yilayotganini mamnuniyat bilan qabul qilamiz. So'nggi yillar amaliyoti ko'rsatmoqda, ushbu reyslar mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarning barqaror dinamikasini shakllantirib, o'zaro sayyohlik va ishbiarmonlik oqimlari o'sishiga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Chexiya an'anaviy ravishda O'zbekiston fuqarolari uchun jozibador yo'nalish bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston ham chex sayyohlari uchun istiqbolli yo'nalish sifatida o'z mavqeiini ishonch bilan mustahkamlab borayotganini mamnuniyat bilan qayd etamiz. Bundan tashqari,

ULKAN IMKONIYATLAR ISHLASHGA, IZLANISHGA CHORLAYDI

Davlatimiz rahbarining Farg'ona viloyatiga navbatdagi tashrifi usta bog'bonlar, tomorqachilar hayotida yangi imkoniyat eshiklarini ochdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Dasturxonimiz to'kin bo'lishida agrar tarmoq katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda sohani rivojlantirishda islohotlar ko'lami yanada kengaydi. Esimni taniganimdan buyon qishloq xo'jaligida mehnat qilib kelaman. Bugungi dehqonchilik an'analarini avvalgisiga bilan qiyoslab bo'lmaydi. Dehqonchilik bilim, ko'nikma va izlanishlar mahsuli ekanini anglab yetdik. Bu mahsulot yetishtirish bilan birga qo'shilgan qiymat yaratish, eksportni ko'paytirish imkoniyatini bermoqda.

Endi ekishdan boshlab, saralash, qadoqlash, qayta ishlash va eksport qilishgacha bo'lgan to'liq zanjirni qamrab oluvchi zamonaviy agromarkazlar tashkil etilyapti. Bu — juda katta imkoniyat, qulaylik. Avvallari yetishtirgan mahsulotimizga bozor topolmay sarson bo'lardik. Ayni pishiqchilik mavsumida mahsulot saqlovchi muzlatkichli omborlar yo'q edi. Ochiq maydonda, qo'lbola sharoitda saqlangan sarxil meva-sabzavotlar sifati tez pasayardi. Tabiiyki, bu holat dehqon bog'bonlarga zarar keltirardi. Yil bo'yi mehnat qilib, foydadan quruq qolgan kunlarimiz ko'p bo'lgan.

Hozir bu boradagi ish yo'sini butunlay o'zgaradi. Joylarda mahsulotlarni xarid qilish, saqlash, qayta ishlash, eksportga chiqarish bilan bog'liq mukammal tizim ishlab chiqildi. Farg'ona viloyatidagi holatni tahlil qilsak, shirindan shakar meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, eksport hajmi va geografiasini kengaytirish maqsadida yangi imkoniyatlar ishga solinmoqda.

"Quva Agrostar" zamonaviy korxonasi qilingan ishlar hayratlantiradi. So'nggi rusumdagi texnologiyalar bilan jihozlangan agrokompleksda 12 turdagi mahsulot yetishtirish, qadoqlash, qayta ishlash imkoniyatlari mavjud. Global GAP, ISO 22000, Halal va HACCP kabi xalqaro sertifikatlar mahsulot sifati va milliy brendga ishonchni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Bu tayyor mahsulotni eksport qilish imkoniyatini yanada kengaytiradi, iqtisodiyotni mustahkamlaydi.

Majmua tumandagi 33 mahallada joylashgan 3 ming xonadon va mingta dehqon xo'jaligi bilan kooperatsiya asosida faoliyat yuritadi. Bu yuzlab odamlar uchun ish o'rni, doimiy daromad degani. Shuningdek, aholiga 10 sotix yerdan o'rtacha 250 million so'm daromad qilish amaliyoti o'rgatilmog'da. Ko'rilayotgan



Masturaxon SAYFIDDINOVA, "Farg'ona anorchilik" agrofirmani rahbari

natija ham shunga yarasha salmoqli. Xususan, 2025-yilda Yaponiya va Janubiy Koreya kabi yangi bozorlar sari yo'l ochildi. Joriy yilda 25 million dollarlik sarxil mahsulotlar eksport qilish rejalashtirilyapti. Bunaqasi ilgari bo'lgan emas.

Agrovoltajka usulida tashkil etilgan uzumzor, chorvachilik hamda baliqchilik kompleksida yaratilgan sharoit va imkoniyatlar haqida har qancha gapirsaq oz. Hududda qayta tiklanuvchi energiya

manbalari hamda ikki bosqichli suv tejovchi texnologiyalar o'rnatilgan. 110 gektar maydonda intensiv bog'dorchilik, chorvachilik va baliqchilikni qamrab olgan kompleks agrar tarmoq rivojiga xizmat qilyapti. Quyosh panellari nafaqat elektr bilan ta'minlaydi, balki ekin uchun soya vazifasini ham o'taydi. Shu orqali o'simliklar ildizi atrofidagi namlikni saqlaydi. Bu, o'z navbatida, suv tejamkorligida ham juda muhim. Ushbu ajoyib zanjir halqasi haroratni me'yorda ushlab turish orqali quyosh panelining barqaror ishlashini ta'minlaydi. Natijada suv sarfi 40, o'g'it sarfi 35, qo'lni mehnati 90 foiz kamayishi kutilgan, hosildorlik esa 25 foiz oshgan.

Prezidentimiz qishloq xo'jaligidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Viloyatda 370 ming gektar sug'oriladigan yer bor. Shundan 55 ming gektar bog' va tokzor, 5500 gektar bog' va tokzor eskirgan, 6 ming gektar dasht va adir yeridan samarali foydalanilmayapti. Bu imkoniyatlar ishga solinsa, qo'shimcha 300 ming toma meva-sabzavot yetishtirish va 2 trillion so'mlik qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish imkoniyati mavjud.

Bularning barchasi davlatimiz rahbarining uzoq istiqbolli, xalqchil siyosati hamda aniq reja, ilgama asoslangan hayotbaxsh loyihalarning amaldagi ifodasidir.

Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

UMUMXALQ BIRDAMLIGI IFODASI, MILLIY RIVOJLANISHNING STRATEGIK KAFOLATI



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
Fan, ta'lim, madaniyat, sport va
yoshlar masalalari qo'mitasi raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

Xususiy lashtirishdan manfaatdorlik tizimining joriy etilishi mazkur jarayonning institutsional sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, viloyatlar darajasida 2,6 trillion so'm, mahallalar miqyosida esa 7 milliard so'm mablag' qoldirilgan xususiy lashtirishni faqat makroiqtisodiy emas, balki ijtimoiy dividendlarini ham shakllantirayotganini anglatadi. Bu yondashuv hududiy manfaatdorlikni kuchaytirish orqali ishlohtalarning "qabul qilinish darajasi"ni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xususiy lashtirish jarayonini yanada jadallashirish, ayniqsa, zarar ko'rib kelayotgan korxonalarimiz bozor mexanizmlariga o'tkazish strategik zaruratga aylanoqda. Biroq bu jarayon shoshmashoharlik bilan emas, balki aniq mezonlar asosida — aktivlarning bozor qiymatini to'g'ri baholash, ochiq va shaffof savdolarini ta'minlash, xususiy investorlarning uzoq muddatli majburiyatlarini belgilash orqali amalga oshirilishi lozim. Aks holda, xususiy lashtirish qisqa muddatli fiskal manfaatlarini ta'minlashi mumkin, lekin uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikka erishishni kafolatlamaydi.

Davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirishda muhim cheklavlardan biri tahlil va qaror qabul qilish jarayonida zamonaviy raqamli vositalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganidir. Amaldagi tizimlarda ma'lumotlar tarqoq holda saqlanishi, real vaqt rejimida monitoring cheklangani va inson omiliga yuqori bog'liqlik aktivlarni boshqarish samaradorligini pasaytiradi. Shu nuqtayi nazardan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligida maxsus raqamli texnologiyalar loyiha ofisini tashkil etish tashabbusi institutsional jihatdan muhim qadamdir.

Taklif etilayotgan yondashuv doirasida xususiy lashtirish jarayonini to'liq raqamlashtirish, barcha bosqichni onlayn kuzatish va ma'lumotlarni yagona platformada jamlash ko'zda tutiladi. Sun'iy intellekt elementlarini joriy etish orqali davlat korxonalarining moliyaviy holatini avtomatik tahlil qilish, risklarni erta aniqlash va tushumlarni taqsimlashda optimal qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, inson omili ta'sirini qisqartirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Yer resurslaridan samarali foydalanish masalalarida ham raqamli yondashuvlarni kuchaytirish zarurati yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Xususan, E-avksion, Yerelektron, Shaffof qurilish va UzKAD axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish orqali yer uchastkalarining haqiqiy holatini kompleks baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu orqali foydalanilmayotgan yoki samarasiz ishlatilayotgan yerlarni aniqlash, qayta taqsimlash va iqtisodiy aylanmaga jalb qilish mexanizmlarini kuchaytirish mumkin. 2022-2025-yillarda tadbirkorlarga ajratilgan 11,4 ming gektar yerning 3,1 ming gektarida iqtisodiy faoliyat to'liq yo'lga qo'yilmagani yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun raqamli nazoratni mustahkamlash zarurati yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, yirik davlat aktivlarini xususiy lashtirishga tayyorlash ishlari izchil davom ettirilmoqda. Xususan, "UzAuto Motors" va "Navoiyazot" kabi sanoat gigantlari, shuningdek, isizlik elektr stansiyalari kabi strategik infratuzilma obyektlarini bozor mexanizmlariga bosqichma-bosqich o'tkazish rejalashtirilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, xususiy sektor ulushini oshirish va raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qilsa, ikkinchi

tomondan, ilg'or texnologiyalar va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali tarmoqlarni modernizatsiya qilish imkonini beradi.

Huddudlarda davlat mulkidan samarali foydalanish va faoliyatdan chetda qolgan resurslarni iqtisodiy aylanmaga jalb qilish masalasi iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanoqda. Bu borada davlat ko'chmas mulkini yagona boshqaruv tizimiga o'tkazish hamda ma'muriy binolardan foydalanish samaradorligini qayta ko'rib chiqish taklif etilmoqda. Xususan, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rta maydonni 27 kvadrat metrdan 12-15 kvadrat metrgacha qisqartirish tashabbusi resurslardan ratsional foydalanish nuqtayi nazaridan asoslidir.

Mazkur yondashuv orqali 4,9 million kvadrat metrga yaqin maydonni iqtisodiy aylanmaga kiritish imkoniyati paydo bo'ladi. Bu, o'z navbatida, bo'sh turgan binolarni ijara berish yoki sotish orqali qo'shimcha daromad manbalari yaratish, shuningdek, ularni saqlash va kommunal xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Biroq bu yerda muhim jihat, bunday maydonlarning bozordagi real talabga mos ravishda taklif qilinishi va ularning samarali foydalanilishini ta'minlash mexanizmlarining ishlab chiqilganidir. Aks holda, aktivlar qog'ozda aylanmaga kiritilgan, amalda esa foydalanilmayotgan holatda qolib ketishi mumkin.

Yer resurslarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishda ham yangi yondashuv shakllanmoqda. Yer maydonlarini faqat ruxsat beruvchi hujjatlar bilan emas, balki tayyor biznes loyihasi bilan birga avksionga chiqarish amaliyoti joriy etilayotgan investitsiya jarayonlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu model yerni shartli resursdan tayyor iqtisodiy aktivga aylantiradi. Shu bilan birga, yana 100 ming gektar ekin yerni yangi tizim asosida avksionga chiqarish rejasini agrar sektorda bozor mexanizmlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish maqsadida turizm va agrosanoat yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, har bir tumanning turistik salohiyatini oshirish, shuningdek, viloyatlar kesimida kamida 5 tadan yirik sanoatlashgan meva-sabzavot plantatsiyasini tashkil etish bo'yicha belgilangan



vazifalar hududlarda yangi qiymat zanjirlarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Biroq bu yerda asosiy masala mazkur loyihalarning bozor talabiga mosligi va logistika, qayta ishlash hamda eksport infratuzilmasi bilan qanchalik uyg'unlashganidir.

Resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy faollikni kengaytirish soliq bazasining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, soliq tizimidagi ishlohtalar yangi O'zbekiston iqtisodiy siyosatining markaziy elementlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. So'nggi ikki yilda soliq ishlohtalari hisobiga budget tushumi iqtisodiy o'sish sur'atiga nisbatan tezroq oshmoqda. Bu holat soliq ma'murchiligining takomillashuvi va yashirin iqtisodiyot ulushining qisqarayotganini bilan izohlanadi. Buni Xalqaro valyuta jamg'armasi ham o'z baholarida qayd etgan.

Strategik maqsad sifatida 2030-yilga borib soliq tushumlarini 491,5 trillion so'mga yetkazish va iqtisodiyotdagi norasmiy sektor ulushini 28 foizdan 19,6 foizgacha qisqartirish belgilangan. Yashirin iqtisodiyotning yuqori darajada saqlanib qolishi nafaqat budget daromadlarini cheklaydi, balki bozorda adolati raqobat muhitini ham izdan chiqaradi. Norasmiy faoliyat yuritayotgan subyektlar soliq yukidan qochish orqali sun'iy afzallikka ega bo'ladi. Bu esa samarali va shaffof ishlayotgan biznes subyektlari uchun tengsiz sharoit yaratadi.

Shu bois, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga faqat fiskal vazifa emas, balki raqobat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaralishi



lozim. Bu yo'nalishda ma'muriy nazoratni kuchaytirish bilan birga biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini optimallashtirish va iqtisodiy faoliyatni "soyadan chiqish"ga rag'batlantiruvchi institutlarni shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari birinchi chorak tahliliga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda raqamli tahlil va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanib, "aqlli" nazorat tizimini joriy etish orqali joriy yilda budgetga to'g'ri qo'shimcha 30 trillion so'm tushumini ta'minlash zarurligini ko'rsatib o'tdi.

Yig'ilishda strategik bo'lmagan yirik soliq to'lovchilarga hududlarda xizmat ko'rsatish masalasi ko'zda tutiladi. 209 mingta QQS to'lovchi soliq organlaridan uzoqda joylashgani xizmat sifatini pasaytirmoqda. Yechim: strategik bo'lmagan 50 ta korxonani nazoratini viloyat darajasiga, 103 mingdan ziyod qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish korxonasini

qo'nimsizligi oshgan. Xodimlarning malakasini oshirish darajasi pastligi, moddiy rag'batlantirish tizimi zamon talablariga javob bermasligi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari yetarli emasligi muammolarni tizimli tarzda ko'rsatmoqda. 2022-yilda 3000 dan ortiq xodim malaka oshirgan bo'lsa, o'tgan yili bor-yo'g'i 700 nafari qayta o'qitilgan. Bu keskin pasayish tashabbusi uyg'otadi.

Soliq akademiyasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlarni moddiy va ijtimoiy rag'batlantirish, ulzulsiz ta'lim tizimini yo'lga qo'yish soliq tizimini ko'proq "servis tashkiloti"ga aylantirish strategiyasining tarkibiy qismidir.

Bank-kredit tizimining tahlili mamlakatimizdagi iqtisodiy faollik dinamikasini aniq ko'rsatadi.

Tadbirkorlik segmentida sanoat tarmog'i 140,8 trillion so'm bilan eng yirik kredit iste'molchisi bo'lsa-da, kredit hajmi o'tgan yildagiga nisbatan 13,5 trillion so'm kamaygan. Aksincha, qishloq xo'jaligi sohasida kreditlarga talab keskin ortgan. Soha qarzdorligi 12,2 trillion so'm ko'payib, jami 62,1 trillion so'mni tashkil etdi. Bu agrosanoat sektorini rivojlantirishga davlat e'tibori kuchaygani bilan bog'liq.

2026-yil 1-aprel kuni O'zbekiston hukumati global moliya maydonida nihoyatda muhim bitimni imzoladi. Mamlakatimiz ekvivalent hisobida 1 milliard dollarga teng so'mdagi suveren xalqaro obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Ushbu amaliyot milliy valyutadagi qarz jalb qilish tarixida eng past — yillik 12,25 foiz stavka bilan qayd etildi.

Emissiya jarayonida xalqaro investorlar tomonidan misli ko'rilmagan talab kuzatildi. AQSH, Yevropa, Buyuk Britaniya va Osiyoning 50 ga yaqin yirik investitsiya kompaniyalaridan jami 23,4 trillion so'mlik arizalar kelib tushdi. Bu ko'rsatkich hukumat taklif etgan dastlabki miqdordan deyarli to'rt baravar ko'p, talabdan ortiq obuna nisbati 4:1. Bu davlatga stavkani sezilarli pasaytirish imkonini berdi.

Tarixiy taqqoslash: 2024-yilda 3-yillik obligatsiyalar 16,625 foiz stavkada, 2025-yilda 15,5 foiz stavkada chiqarilgan edi. 2026-yilda 12,25 foiz. Bu stavkadagi tizimli tushish investirlanib O'zbekiston iqtisodiy barqarorligiga ishonchi ortayotganidan dalolat beradi. Ushbu bitim Markaziy va Sharqiy Yevropa hamda Afrika davlatlari orasida milliy valyutadagi qog'ozlarni joylashtirish hajmi bo'yicha so'nggi 15-yildagi eng yirik ko'rsatkich bo'ladi.

Jalb etilgan mablag'lar budget taqchilligini moliylashtirishga yo'naltiriladi. 2026-yilda budget taqchilligi 60,1 trillion so'm bo'lishi va YIMning 3 foizidan oshmasligi belgilangan. Kelgusida GBI-EM indeksiga kirish rejalashtirilmoqda. Bu 300 milliard dollarlik aktivlarni boshqaruvchi yangi investorlar guruhini jalb qilish va davlat qarzi xarajatlarini yanada kamaytirishga xizmat qiladi.

2026-yil uchun mo'ljallangan davlat dasturida aniq va o'lchanadigan maqsadlar belgilangan. Mamlakatimizning yalpi ichki mahsuloti 167 milliard dollarga yetkazilishi rejalashtirilgan. Iqtisodiy o'sish sur'ati 6,6 foiz darajasida bo'lishi kutilmoqda.

Inflyatsiya 6-6,5 foizgacha tushiriladi, budget taqchilligi YIMga nisbatan 3 foiz miqdorida cheklanadi. Bu ko'rsatkichlar xalqaro standartlar, xususan, Xalqaro valyuta jamg'armasi talabari

doirasida va rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun qabul qilingan me'yorlar doirasida. Iqtisodiyotga 50,4 milliard dollar xorijiy investitsiyani jalb etish ko'zda tutilgan.

Dasturda 1 milliard fuqaroni doimiy ish o'rni bilan ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Kambag'allikni 2,8 foizga, ishsizlikni 4,5 foizga tushirish rejalashtirilgan. 263 ming oilani kambag'allikdan chiqarish choralarini ko'riladi. Bu raqamlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy natija ko'rsatkichlari sifatida ham baholanishi lozim.

Xizmat ko'rsatish sohasi 100 milliard dollardan oshishi, qurilish 11 foiz o'sib, 30 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Mamlakatimiz bo'yab qiymati 4 milliard dollarga teng 3500 dan ortiq yangi xizmat ko'rsatish obyektlari foydalanishga topshiriladi.

2026-yilgi dastur markazida mahalla instituti turadi. Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash uchun 20 trillion so'm ajratiladi. Mahallalarda 10 mingdan ortiq ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalari ishga tushirilib, ular orqali 100 mingta yangi ish o'rni ochiladi.

Strategik maqsad 3500 ta mahallani ishsizlik va kambag'allikdan xoli hududga aylantirishdir. Davlat organlari mahalladagi muammolarni hal etish uchun 24/7 rejimida onlayn nazorat ostida ishlaydi. Mahalla tizimi o'zbekistonliklar uchun ijtimoiy xavfsizlik va mutanosiblikning benazir asosidir. Uni iqtisodiy rivojlantirish vositasiga aylantirish noyob va samarali yondashuv.

2030-yilga borib YIM hajmini 240 milliard dollardan oshirish uchun mustahkam poydevor yaratilishi kutilmoqda. Bu 2026-yilgi ko'rsatkichdan 44 foiz oshishi iqtisodiy o'sishning tezlashayotgan trayektoriyasini ko'rsatadi.

Birinchi chorakda yurtimizga 3 millionga yaqin xorijiy sayyoh keldi, turizm eksporti 1 milliard 103 million dollarni tashkil qildi. Bunday yuqori natijaga "turistik relokatsiya" ham katta ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlanadi. Global notinchilik sharoitida millionlab turistlar tinch, xavfsiz va sifatli yo'nalishlarni qidirmoqda. Mamlakatimiz bu imkoniyatni ushlab turishi uchun har bir tumanning turistik jozibadorligini oshirish bo'yicha kompleks tavsiyalar tayyorlanishi zarurligi belgilandi.

Elektr energiyasidan samarali foydalanish mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida muhim omil. Elektr yo'qotishi 20 foizdan ko'p bo'lgan 44 ta tumandagi elektr tarmoqlari korxonalaridagi ahvol tanqid qilindi. Rahbarlar almashtirilishi, o'rni yosh kadrlar qo'yilishi va yo'qotishlarni 2 baravar kamaytirish bo'yicha KPI belgilash zarurligi qayd etildi. Umuman, tarmoq rahbarlari va hokimlar bu yil 5 milliard kilovatt elektr va 3,5 milliard kub metr gazni tejashi shartligi ta'kidlanadi.

Texnika oliyog'larida energetika yo'nalishi bo'yicha 10 mingdan ziyod 3-4-kurs talabari tahsil olmoqda. Ularni texnika xavfsizligiga o'qitib, dual ta'lim asosida tuman korxonalarida amaliyot o'tashi va energiya tejash bo'yicha amaliyot yechimlar taklif qilishi rag'batlantiriladi. Bu yondashuv ta'lim — ishlab chiqarish integratsiyasining amaliy namunasi.

Joriy yil mamlakatimiz nufuzli "Iqtisodiy erkinlik indeksi"da 14 pog'ona yuqorilab, ilk bor "iqtisodiyotni mo'tadil erkin" davlatlar qatoridan joy oldi. Bu nafaqat reyting ko'rsatkichi, balki mamlakatimizning xorijiy investitsiyalar uchun jozibadorligi, tadbirkorlik muhiti ochiqchiligi va huquqiy tizim barqarorligining xalqaro tan olinishini bildiradi.

Qarz olish tannaxsini pasaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, turizmni rivojlantirish va xalqaro loyihalarda ishtirok etish nuqtayi nazaridan iqtisodiy reytinglar strategik ahamiyatga ega. Davlat ushbu reytinglarni oshirish uchun izchil ishlohtalar o'tkazmoqda.

Global ziddiyatlar, logistika yo'laklaridagi o'zgarishlar va ta'minot zanjirlarining buzilishi bizga ham bosim o'tkazmoqda. Yil boshidan dunyoda neft narxi 40 foiz oshdi. Bu mahalliy tovarlar eksporti va asosiy iste'mol tovarlarining importida tashish xarajalarini 25-30 foiz oshishi riski mavjud degani. Inflyatsiya importi ichki narx-navoga 1 foizgacha qo'shimcha bosimni yuzuga keltirmoqda.

Logistikadagi uzilishlar tufayli birinchi chorakda qoramol importi 2 baravar kamaydi. Yechim sifatida havo transportida tashiladigan nasli qoramol uchun 4 million so'mgacha subsidiya, go'sht importida transport xarajalarining yarmini qoplash yo'lga qo'yildi. Ikkinchi chorakda 45 ming tonna, yil yakunigacha jami 130 ming tonna go'sht importini ta'minlash maqsadi belgilandi. Muqobil transport yo'laklarini ko'paytirish taklifi tashqi savdodagi yagona yo'lak riskini kamaytirishga xizmat qiladi.

Inflyatsiyani faqat tashqi omillarga bog'lash mas'uliyatdan qochishdir. Ichki ishlab chiqarish va tovar taklifi inflyatsiyani boshqarishning asosiy vositasi bo'lishi lozim. Shuning uchun mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish, taklifni ko'paytirish va sun'iy monopoliyaga qarshi kurash inflyatsiya siyosati markazida turadi.

Davlatimizning xalqaro nufuzi iqtisodiy ko'rsatkichlar va siyosiy ishlohtalar orqali mustahkamlanib bormoqda. O'tgan hafta Xalqaro valyuta jamg'armasi e'lon qilgan hisobotda "yuqori iqtisodiy faollik orqali O'zbekiston kuchli va barqaror iqtisodiy o'sishni saqlab qolayotgani" qayd etildi. Bu baho nafaqat qo'llab-quvvatlash, balki xalqaro kreditor va investorlar uchun signal vazifasini bajaradi.

Davlat aktivlarining 30 foizini xalqaro fond bozorlariga chiqarish va 13 ta strategik korxonaga boshqaruvchi "Franklin Templeton" kompaniyasiga berish, bu iqtisodiy ishlohtalarning yangi bosqichi. Xalqaro boshqaruv standartlari joriy etilishi korporativ boshqaruv sifatini oshiradi, shaffoflikni ta'minlaydi va strategik investitsiyalarni jalb qilishiga sharoit yaratadi.

Mustaqilligimizning 35-yilligi nishonlanadigan 2026-yilda O'zbekiston global iqtisodiy arenada o'zini "iqtisodiyotni mo'tadil erkin" davlat sifatida ilk bor rasmiy tan oldirdi. Bu mavqe yangi O'zbekiston davrining jadal o'zgarishlarini jamlagan yuksak e'tirofdir.

Mustaqillik bayramini nishonlash va iqtisodiy ishlohtalar o'rnatidagi munosabat yuzaki qaraganda ayon ko'rinnas, ammo chuqur tahlil bayram nishonlashning asosiy g'oyaviy mazmuni ishlohtalar natijalari, iqtisodiy o'sish va aholining turmush sifati oshishi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Markaziy Osiyoning eng ko'p aholiga ega, iqtisodiy jihatdan eng faol davlati sifatida mintaqaviy yetakchilik mavqegini mustahkamlamoqda. Yaxshi qo'shnihilik siyosati, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish mamlakatning geosiyosiy risklarini kamaytirib, iqtisodiy imkoniyatlarini oshirmoqda.

Ishlohtalar majmuasiga qaraganda, iqtisodiy siyosatda tizimli yondashuv ustuvor: xususiy lashtirish va iqtisodiyotda davlat ulushini qisqartirish; soliq tizimini "tekshiruvdan — servisga" transformatsiya qilish; bank-kredit tizimini rivojlantirish, bandlikni oshirish; raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni ishlab chiqarish, soliq va boshqaruvga tatbiq etish; mahalla asosidagi inkluziv rivojlanish; suveren moliyaviy boshqaruv va budget intizimi; turizm, xizmatlar va eksportni diversifikatsiyalash.

Bu yondashuv bir-biri bilan bog'liq choralarining uyg'un tizimini tashkil etadi. Xususiy lashtirish budgetini mustahkamlaydi, soliq ma'murchiligini yaxshilab, tushumlarni oshiradi, raqamli vositalar shaffoflikni ta'minlaydi va ma'muriy resurslar chiqimini kamaytiradi, mahalla ishlohti ijtimoiy barqarorlikni saqlaydi. Bularning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot salohiyatini mustahkamlovchi yagona mexanizmi tashkil etadi.

Ha, bugun mamlakatimiz 240 milliard dollar YIMga qarab boryapti. Bu mustaqillik tamaliga qurilgan, ishlohtalar orqali mustahkamlangan va umumxalq birdamligida ifoda topgan yangi O'zbekistonning strategik tasviri. Mustaqillik bayrami shukhi har kuni ishlayotgan tadbirkor, o'qiyotgan talaba, izlanayotgan olim, davlat xizmatchisi amaliyotida davom etadi. Istiqbolimizning 35-yilligi o'tmishni yodga olish bilan birga, istiqbolni rejalashtirish va millat sifatida birlashishning buyuk imkoniyatidir.



Bugun "yashil" energetikaga o'tish masalasi zaruratga aylandi. Dunyo miqosida yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, resurslar tanqisligi va ekologik muammolar insoniyatni taraqqiyotning yangi modelini izlashga undamoqda.

Qo'shilgan qiymat mahsulotni qayta ishlash, sifatini yaxshilash, brending, logistika va boshqa innovatsion usullar orqali amalga oshiriladi. Eng muhimi, qo'shimcha qiymat yaratish iqtisodiy o'sish va daromadni ko'paytirishda asosiy omil. Davlatimiz rahbarining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ikkinchi ustuvor yo'nalish sifatida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish belgilangan.



Resursdan — natijaga

QO'SHILGAN QIYMAT ZANJIRI

Shu doirada qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2026-yil fevral oyida Surxondaryoga tashrif davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Qiziriq, Uzun va Oltinsoy tumanlarida meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratish loyihalari amalga oshirilmoqda.

etish, mahsulot hosildorligi va sifatini oshirish, shuningdek, qo'shilgan qiymat uchun muhim zamin yaratadi.

Tumandagi Bog'onlar yurti mahallasida mevali daraxtlarning xorijdan keltirilgan serhosil navlarini yetishtirish va parvarishlash bo'yicha tajriba o'tkazilmoqda. Bu qo'shilgan qiymat yaratishning innovatsion usuli sifatida ahamiyatli. Chunki serhosil navlar mahalliy



Bu tashabbuslar esa mahalliy xo'jaliklar rivojiga va qishloq hududlardagi daromadlarni yanada oshirishga xizmat qilayapti.

Respublikadagi og'ir toifali hududlar qatoriga kiritilgan Qiziriq tumanida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yetishtirilgan mahsulotlar hosildorligini oshirish, fermer va mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mahsulotlarni qayta ishlash va bozorda yuqori qiymat bilan sotish, shuningdek, eksport va ichki bozor uchun mahsulot turini ko'paytirishga erishilmoqda.

Tumanda Bandixon ilmiy tajriba stansiyasi filiali bor. Salkam 500 gektar tajriba maydonida kivi, olma, zaytun kabi mevalar parvarish qilinadi. Bu tajriba maydoni qishloq xo'jaligida ilmiy usullar va texnologiyalarni keng tatbiq

sharoitda moslashtiriladi va hosildorlik yuqori bo'ladi. Mahsulot turini ko'paytirish va bozorda yuqori qiymat bilan sotish imkonini beradi.

Zaytun — foydali servitamin meva beradigan daraxt. Mintaqamizda zaytunning tabiiy sharoitga moslashishi o'ta qiyin hisoblangan. Lekin olimlarimiz tajriba maydonlarida o'tkazgan tadqiqotlar zaytunning yurtimizda ham yuqori hosil berishini isbotladi.

— Zaytun nafaqat sog'liq uchun foydali, balki qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymat yaratishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki zaytundan qo'shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Uning mevasi vitaminlarga boy va salomatlik uchun muhim antioksidantlarga ega. Bir so'z bilan aytganda, koni foyda, — deydi Bandixon ilmiy tajriba stansiyasining Qiziriqdagi filiali

agronomi Serali Hayitov. — Stansiyamizda o'tkazilgan ilmiy tadqiqot va tajribalar, zaytun mahalliy sharoitga moslashtirish bo'yicha harakatlarimiz o'z samarasini berdi. Dastlabki natijalarimiz ham yomon emas. Joriy yilda Surxondaryo viloyatida meva-sabzavotni qayta ishlashni 16 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 2025-yildagi yalpi hududiy mahsulotda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish hajmi 42,2 trillion so'mni tashkil etgan. Joriy yilda yalpi hududiy mahsulotda 103,5 foiz o'sishi kutilyapti.

Surxondaryoda limonchilik, uzumchilik, xurmo va anjir kabi mevalilikni rivojlantirish maqsadida amaliy chora-tadbirlar ko'rdi. Xususan, fuqarolarga xurmoning serhosil navlari ko'chatlari tarqatildi. Bu tashabbus orqali hosildorlik oshirildi, mahsulotning bir qismini qayta ishlash va eksportga yo'naltirish orqali qo'shilgan qiymat yaratildi.

Uzun tumanining Yangi kuch mahallasida xurmochilikka ixtisoslashuvni chuqurlashtirish maqsadida maxsus tadbirlar ko'rdi. "Bitta mahalla, bitta ko'cha, 40 ta xonadon" tamoyili asosida Madaniyat ko'chasidagi xonadonlar xatlovdan o'tkazilib, xurmo va anjirga bo'lgan talab o'rganildi.

— Mahallamizda 40 ta xonadon talab olindi. Shaxsiy tomorqalarda agronomlar tomonidan tuproq va suv tahlillari o'tkazildi. Fuqarolarga 1320 tup xurmo ko'chati ekib berildi, — deydi "Yangi kuch" MFY raisi Kamol Yoqubov.

Uzun tumanida xurmo va anjir yetishtirishni rivojlantirish maqsadida Mirzohid Madrahimov xonadonida "Xonadon maktabi" tashkil etilgan. Hozirgi kunga unda 300 dan ortiq fermer, dehqon xo'jaliklari rahbarlari, tomorqa yer egalari xurmo va anjirni to'g'ri parvarishlash, hosildorlikni oshirish va qo'shilgan qiymat yaratish bo'yicha o'qitildi. "Xonadon maktabi"da malaka oshirgan

fuqarolar egallagan bilim va ko'nikmalarini o'z tomorqalari va mahallasida joriy etmoqda. Bu ijobiy tajribani boshqa tumanlarda ham bosqichma-bosqich qo'llash mexanizmi yo'lga qo'yildi.


anjir ko'chati tarqatilgan. 2026-yilda esa 100 gektar maydonda xurmo va anjir plantatsiyasi tashkil etilishi ko'zlangan. Bu tashabbus bandlikni ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.



Uzun tumanida mahsulot yetishtirishdan tortib, eksportgacha zanjir yaratish maqsadida milliy brend o'stira qaratilgan. "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman va shaharlar" konsepsiyasi asosida meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish orqali qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ushbu tumanda 5,3 ming gektar uzumzor mavjud. Ularning 3,7 ming gektarida xo'raki, 451 gektarida mayizbop, 1,5 ming gektarida sanoatbop uzum yetishtiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hududda uzumchilik sektori yaxshi rivojlangan va uni qayta ishlash bilan qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari katta. Masalan, sanoatbop navlar asosida uzum sharbati, konserval va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin.

Oltinsoy respublikadagi 70 ta og'ir tuman qatoriga kiradi va bu hududlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. "Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tuman va shaharlar" konsepsiyasi asosida meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlashni rivojlantirish orqali qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda ushbu tumanda 5,3 ming gektar uzumzor mavjud. Ularning 3,7 ming gektarida xo'raki, 451 gektarida mayizbop, 1,5 ming gektarida sanoatbop uzum yetishtiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, hududda uzumchilik sektori yaxshi rivojlangan va uni qayta ishlash bilan qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari katta. Masalan, sanoatbop navlar asosida uzum sharbati, konserval va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish mumkin.

Oltinsoy tumanida yana bir tarmoq — issiqxonachilik sektori tobora rivojlanib bormoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda tumanda 45,2 gektar maydonda zamonaviy issiqxonalar tashkil etilgan. U yerlarda korxon va dehqon, fermer xo'jaliklari tomonidan



“

Uzun tumanining Yangi kuch mahallasida xurmochilikka ixtisoslashuvni chuqurlashtirish maqsadida maxsus tadbirlar ko'rdi. "Bitta mahalla, bitta ko'cha, 40 ta xonadon" tamoyili asosida Madaniyat ko'chasidagi xonadonlar xatlovdan o'tkazilib, xurmo va anjirga bo'lgan talab o'rganildi.

”

Bugungi global taraqqiyot davrida energiya insoniyat hayotining markaziy masalasiga aylandi. Jahonda aholi soni ortib, shaharlar kengayib, sanoat va raqamli texnologiyalar jadal sur'atlarda rivojlanar ekan, energiyaga ehtiyoj ham muttasil oshib bormoqda. Ilgari elektr ta'minoti faqat ishlab chiqarish yoki maishiy qulaylik bilan bog'liq deb qaralgan bo'lsa, bugun u milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning ajralmas qismiga aylandi. Bir qarashda ko'zga tashlanmaydigan raqamli jarayonlar — ma'lumotlarni saqlash, internet tarmoqlari faoliyati, elektron to'lovlar, sun'iy intellekt tizimlari — barchasi katta hajmdagi energiyaga tayanadi. Demak, energiya endi faqat resurs emas, balki sivilizatsiya harakatini ta'minlovchi qon tomirga aylandi.

Biroq taraqqiyotning bu shiddati tabiiy imkoniyatlari bilan muvozanatda emas. Asrlar davomida neft, gaz va ko'mir kabi an'anaviy manbalarga suyanib kelgan energetika modeli insoniyatga sanoat inqilobi va iqtisodiy o'sish imkonini berdi. Ammo bu model tabiiy zararlarning cheklangani va ekologik oqibatlarni yetarlicha hisobga olmadi. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar, global iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar sonining ortishi — bularning barchasi energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati bilan bog'liq. Endilikda masala faqat energiyani ko'proq ishlab chiqarish emas, balki uni qanday manbadan, qanday tamoyil asosida va qanday mas'uliyat bilan ishlab chiqarishda namoyon bo'lmoqda.

Dunyodagi ko'plab davlatlar allaqachon barqaror energetikaga o'tishni strategik maqsad sifatida belgilab olgan. Yurtimiz ham ushbu global jarayondan chetda emas. Quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, zamonaviy energiya tejamlor texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning kelajakka tashlayotgan qat'iy qadamini ko'rsatadi. Barqaror energetikaga o'tish shunchaki iqtisodiy diversifikatsiya emas, balki ekologik halollik, ma'naviy mas'uliyat va kelajak avlod taqdiriga bo'lgan yuksak e'tibor ifodasi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida joriy yil uchun ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetikani rivojlantirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan bejj emas. Bu, avvalo, global iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi va energiya xavfsizligi kabi muammolarga tobora keskin tus olayotgan hozirgi

sharoitda mamlakatimiz oldida turgan strategik vazifalar aniq va puxta anglanganidan dalolat beradi.

Chunki ekologik barqarorlik masalasi endi faqat tabiatni muhofaza qilish doirasidagi vazifa emas. U iqtisodiy o'sish sur'atlari, aholi farovonligi, qishloq xo'jaligi samaradorligi va umuman, milliy xavfsizlik bilan uzviy bog'liq masalaga aylandi. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, energiya ishlab chiqarishda qayta tiklanuvchi manbalar ulushini oshirish, atmosferaga chiqarilayotgan zararli chiqindilarni qisqartirish — bularning barchasi mamlakat taraqqiyotining uzoq muddatli poydevorini mustahkamlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir.

So'nggi yillarda bu yo'nalishda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi, energiya tejamlor texnologiyalarni joriy etish, sanoat korxonalarida ekologik standartlarni kuchaytirish, suvni tejashga qaratilgan innovatsion yechimlarni amaliyotga tatbiq etish shular jumlasidan. Eng muhimi, bu jarayon bir martalik aksiya yoki vaqtinchalik tashabbus



emas, balki aniq strategiya va uzoq istiqbolga qaratilgan davlat siyosatiga aylanmoqda.

Beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida "yashil" taraqqiyotni belgilash faqat bugungi ehtiyojlarni emas, balki kelajak avlodlar manfaatini ham hisobga olgan holda qabul qilingan qaror ekanini ko'rsatadi. Zero, barqaror energetika va ekologik muvozanat iqtisodiy yuksalishning zamonaviy modeli, ma'naviy mas'uliyat va sivilizatsion tanlov ifodasidir.

Mulohaza

"YASHIL" ENERGIYA:

TARAQQIYOT VA MAS'ULIYAT ORASIDAGI TANLOV

USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

energetika tizimining diversifikatsiyasi, ya'ni manbalar xilma-xilligini ta'minlash orqali xavfsizlikni mustahkamlash degani.

Energetika xavfsizligi bugun faqat elektr uzilishlarining oldini olish bilan o'lganmaydi. U resurslar, narxlar barqarorligi va tashqi omillarga bog'liqlik darajasi bilan ham baholalanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarning ulushi ortishi tabiiy gaz va boshqa uglevodlardan resurslariga ichki bosimni kamaytiradi. Bu esa ularni qo'shimcha qiymat yaratadigan tarmoqlarga yo'naltirish yoki eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Yaqinda 3,5 ming megavattli, qiymati 4 milliard 200 million dollar bo'lgan yangi "yashil" loyihalarga start berilishi strategik uzviylikni ko'rsatadi. Bu investitsiyalar nafaqat elektr ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki mamlakatga ilg'or texnologiyalar transferi, yangi ish o'rinlari va muhandislik maktablari shakllanishiga xizmat qiladi. Energetika sohasidagi har bir yirik loyiha atrofida qurilish, logistika, xizmat ko'rsatish va ta'lim tarmoqlari rivojlanadi. Demak, "yashil" energetika multiplikativ iqtisodiy ta'sirga ega.

Joriy yilning o'zida 7 milliard kub metr tabiiy gaz tealishi rejalashtirilayotgani



sabzavot yetishtirish samarali yo'lga qo'yilgan hamda iqlimga mos hosildor navlar parvarishlanmoqda.

Issiqxonachilikda qo'shilgan qiymat yaratish bir necha asosiy yo'nalishga tayanadi. Ya'ni sabzavot va meva asosida konserva, sharbat hamda boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish orqali qiymat oshiriladi. Bundan tashqari, iqlimga mos navlarni parvarishlash, texnologiyalarni joriy qilish va zamonaviy ishlab chiqarish usullarini qo'llash bilan hosildorlik va mahsulot sifatini yaxshilashga erishiladi. Bu jarayonlar esa Oltinsoydagi issiqxonachilikni nafaqat mahsulot yetishtirish, balki qayta ishlash va qo'shimcha qiymat yaratishning muhim drayveriga aylantirmoqda.

Oltinsoy tumanida jami 853 ta fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda. Ularning 110 tasi bog'dorchilikka, 161 tasi bog'dorchilik va uzumchilikka, 404 tasi maxsus uzumchilikka, 16 tasi sabzavot va poliz yetishtirishga, 26 tasi esa sabzavot yetishtirishga ixtisoslashirilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tumanda uzumchilik va bog'dorchilik sektori asosiy o'rinni egallaydi va mahalliy iqtisodiyotning ustun yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tuman yiliga 26,5 ming tonna uzum va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Buning uchun 3 ta korxon faoliyat yuritmoqda. Bu esa fermerlar tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar qiymatini oshirish va bozorda yanada yuqori narx bilan sotish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, uzum va sabzavotni qayta ishlash quvvati bu ne'matlarning faqat xomashyo emas, balki tayyor mahsulot shaklida qo'shilgan qiymat bilan bozorga chiqishini ta'minlaydi.

Tog'li Oltinsoy tumanida 2,7 ming gektar tomorqa mavjud. Mingchinor mahallasida uzumchilik drayver sifatida tanlangan va mayiz yetishtirish yo'lga qo'yildi. Aytish kerak, qishloqlarda an'anaviy holda mehnat ko'p, lekin daromad nisbatan kam. Oldin xomashyo yetishtirilgan va uning bozor qiymati doim arzon hisoblangan. Endi esa oltinsoyliklar qo'shilgan qiymat yaratishga boshladilar. Misol uchun, Rushtibek Turdiyev oilasi 2025-yilda 100 tonna mayiz eksport qildi va katta daromadga erishdi.

Meva-sabzavot va uzumchilikda qo'shilgan qiymat yaratish tajribasi ko'rsatadiki, agar moliyaviy resurslar samarali yo'naltirilsa hamda ilm va zamonaviy texnologiya qo'llanilsa, mahalliy mahsulotdan milliy brend yaratish mumkin. Bu jarayon oddiy qishloq xo'jaligi loyihasi emas, balki qishloqni boyitish orqali mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning amaliy modeli. Ya'ni yo'lga qo'yilgan loyihalar fermer va ishlab chiqaruvchilarning daromadini shakllantiradi, ilm va texnologiyani qo'llash esa mahsulot sifatini yaxshilab, qiymatini oshiradi. Xususan, joriy yilda Oltinsoy tumanida olinishi kutilayotgan 58,1 ming tonna uzumning 55-60 foizi eksportga, 20 foizi esa qayta ishlashga, yana 20 foiz hosil ichki iste'mol uchun yo'naltiriladi.

Bu tashabbus meva-sabzavotchilikni rivojlantirish, mahsulot turini ko'paytirish va eksport zanjirini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, aholi daromadini oshiradi, tuman iqtisodiy salohiyatini kuchaytiradi hamda qishloq xo'jaligi sektorida qo'shilgan qiymat yaratish modelini amaliyotga tatbiq etadi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

aloahida e'tiborga loyiq. Bu hajm ayrim davlatlarning yillik iste'moliga teng. Tejalgan resurs qo'shimcha iqtisodiy imkoniyat, budjet barqarorligi va eksport tushumlari o'sishi demakdir. Shu bilan birga, 11 million tonna zararli chiqindilar atmosferaga chiqarilishining oldi olinishi ekologik jihatdan ulkan yutuq. Bu nafaqat iqlim o'zgarishiga qarshi kurash, balki aholi salomatligini muhofazalash, tibbiy xarajatlarni kamaytirish va yashash sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Muhammud, bu jarayon raqamlar ortida qolib ketmasligi kerak. "Yashil" energetikaga o'tish iqtisodiy hisob-kitoblarni bilan bir qatorda sivilizatsion yondashuvdir. Ya'ni mamlakat taraqqiyoti tabiiy tabiat bilan qarama-qarshilik emas, uyg'unlik asosiga bog'lanayotir. Energiya ishlab chiqarish usuli o'zgarishi jamiyat tafakkuri o'zgarishini ham talab qiladi: tejamlorlik madaniyati, ekologik mas'uliyat va uzoq muddatli fikrlash shakllanadi.

Bugun "yashil" energetikaga o'tish masalasi zaruratga aylandi. Dunyo miqosida yuz berayotgan iqlim o'zgarishlari, resurslar tanqisligi va ekologik muammolar insoniyatni taraqqiyotning yangi modelini izlashga undamoqda. Shu bois, qayta tiklanuvchi energiya manbalarni rivojlantirish faqat iqtisodiy islohot yoki texnologik yangilanish emas, jamiyat tafakkuridagi chuqur o'zgarishdir.

So'nggi yillardagi keng ko'lami ishlar "yashil" taraqqiyotga o'tish qat'iy siyosiy iroda va puxta strategiya asosida kechayotganini ko'rsatmoqda. Quyosh va shamol stansiyalari barpo etilishi, energiya samaradorligini oshirish choralarini, suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan dasturlar — bularning barchasi barqaror kelajak poydevorini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, bu jarayon iqtisodiy manfaat bilan ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirishga qaratilgan.

"Yashil" energetika tabiatga ehtimor, kelajak avlod oldidagi burch va milliy manfaatlarning uzoq muddatli himoyasidir. Tejalgan har bir kub metr gaz, atmosferaga chiqmay qolgan har bir tonna zararli modda faqat raqam emas, sog'lom muhit, barqaror iqtisodiy va farovon jamiyat sari ko'yilgan qadamdir.

Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

XALQARO OLIMPIADALARGA



Taraddud

MEZBONLIK

YOSHLARIMIZNING ILMIY SALOHIYATI VA YURTIMIZNING TURISTIK JOZIBADORLIGINI NAMOYON ETADI

Shu yilning 20-27-aprel kunlari Namanganda Abu Ali ibn Sino nomidagi ikkinchi xalqaro biologiya olimpiadasi bo'lib o'tdi. Unda turli davlatlardan 100 nafarga yaqin iqtidorli o'quvchi ishtirok etdi.

Respublika fan olimpiadalar markazi direktori To'raboy Shermatov so'zlariga ko'ra, olimpiada ikki bosqichda tashkil etildi. Dastlab molekulyar biologiya va bioinformatika yo'nalishlarida amaliy ish topshiriqlari bajarilgan bo'lsa, ikkinchi bosqichda nazariy bilimlar sinovdan o'tkazildi. Bellashuvni jami 11 ta medal (6 ta bronza, 3 ta kumush, 2 ta oltin) bilan yakunlagan O'zbekiston terma jamoasi vakillari Murodbek Latipov hamda



56- va 57-xalqaro kimyo olimpiadalariga O'zbekiston delegatsiyasi ham tashrif buyurib, xalqaro olimpiadani tashkil etish bo'yicha amaliy tajribalarni chuqur o'rgangan edi.

Ayni paytda olimpiadaning xalqaro standartlarga mos rasmiy veb-sayti, logotipi tayyor. Rasmiy hujjatlar, olimpiadada ishtirok etadigan delegatsiyalar hamda xalqaro hamkorlar bilan muloqot qilish uchun maxsus axborot platformasi yaratilgan. Olimpiada uchun nazariy va amaliy topshiriqlar bazasini yaratish, ekspertizadan o'tkazish, xalqaro olimpiada oldidan nazorat materiallari to'plamini shakllantirish maqsadida xorijiy va mahalliy ekspertlardan iborat ilmiy qo'mita tashkil etildi. Qo'mitaning o'tgan yil sentyabr oyida o'tkazilgan birinchi yig'ilishida AQSHning Garvard, Turkiyaning Bilkent universitetlari, Shveysariya Federatsiya texnologiya instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Chexiyaning Praga kimyo texnologiyalari instituti mutaxassislari hamda 40 dan ziyod mahalliy vakil qatnashdi.

Ilmiy qo'mita tomonidan taklif etilgan 25 ta masaladan 9 tasi tanlab olindi. 6 ta amaliy topshiriqdan 4 tasi ma'qullanib, 3 ta yo'nalishga transformatsiya qilinishi belgilandi. Olimpiadaning laboratoriya va nazariy bosqichlari uchun materiallar bazasi shakllantirildi.

Xalqaro kimyo olimpiadasi boshqaruv qo'mitasi, 58-xalqaro kimyo olimpiadasining ilmiy va tashkiliy qo'mitalari qo'shma yig'ilishi joriy yilning 10-18-yanvar kunlari Toshkent shahrida o'tkazildi. Tayyorgarlik bosqichi doirasidagi mazkur uchrashuvda o'quvchilarning akademik tayyorgarligi va xalqaro formatdagi masalalarga moslashish jarayonlari muhokama qilindi.

Nazariy va amaliy imtihon topshiriqlarining Xalqaro kimyo olimpiadasi standartlariga mosligi ko'rib chiqilib, tasdiqlandi. Yig'ilish yakunida imtihon materiallari va baholash tizimi bo'yicha keyingi bosqich uchun rasmiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Amaliy tayyorgarlik doirasida 16 o'quvchi ishtirokida sinov imtihoni tashkil etilib, masalalar testdan o'tkazildi.

Olimpiada qaysi manzillarda bo'lib o'tadi?

Xalqaro olimpiada jarayonlari, asosan, Central Asian Expo (CAEX) hamda Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida tashkil etiladi. Nufuzli tadbirmening ochilish marosimi Xalqaro anjumanlar saroyida, yopilish marosimi esa Yangi O'zbekiston bog'ida o'tkazilishi ko'zda tutilayapti.

Umid qilamizki, terma jamoamiz bu gal har doimgidan-da ko'proq medalllar shodasiga ega bo'ladi. O'tgan yilgi bronzalari kumushga, kumushlari oltiniga aylansa, ne ajab. Zero, ona vatan tuprog'i, yurt umidi, xalq mehri va ishonchi farzandlarimizni dadiilikka, g'oliblikka undaydi.

Munajat MO'MINOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Nuqtayi nazar



G'ulom UZOQOV, texnika fanlari doktori, professor

hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik hujjat sifatida voha aholisi tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.

So'nggi yillarda qabul qilingan farmon va qarorlar xalqimiz farovonligi, yurtimiz tinchligi, yoshlarimizning yorqin va istiqbolli kelajagi uchun xizmat qilmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy salohiyati yuqori, milliy iqtisodiyotimizning barqaror rivojlanishiga katta hissa qo'shuvchi hududlar uchun maqsadli davlat dasturlari muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimizning 2026-yil 13-martdagi "Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada jadallashtirish to'g'risida"gi qarori ham ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan strategik hujjat sifatida voha aholisi tomonidan mamnuniyat bilan qabul qilindi.

YANGI QAROR

UNDA QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTINI YUKSALTIRISHGA QARATILGAN VAZIFALAR KO'P

Qarorning asosiy mohiyati Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish, biznes muhitini va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash, yashil tamoyilli yondashuvlarni joriy etish orqali yuqori ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.

Hujjatda iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Sanoatni modernizatsiya qilish, sanoat korxonalarini texnologiyangilash va energiya samaradorligini ta'minlash, ishlab chiqariladigan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va eksport hajmini ko'paytirishga yo'naltirilgan muhim tadbirlar belgilangan. Jumladan, yalpi hududiy mahsulot hajmi 8,2 foiz, sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,6 foiz, bozor xizmatlari hajmi 15,9 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi 5,8 foiz va qurilish hajmi 13,2 foiz o'sishiga erishish 2026-yilda yuqori iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy maqsadli ko'rsatkichlari sirasiga kiradi. Ishsizlik darajasini 3,2 foiz va kambag'allik darajasini 3 foizga pasaytirish, shuningdek, hududiy eksport hajmini 1,3 baravar, investitsiyalar hajmini 1,6 baravar oshirish belgilangan. Investitsiya muhitini yaxshilash maqsadida xorijiy va mahalliy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun institutsional sharoitlarni yaratish, soliq va ma'muriy yengilliklarni joriy etish nazarda tutilgan.

Qarorning muhim jihati — ijtimoiy yo'naltirilganidir. Ayniqsa, bandlikni ta'minlash, yangi ish o'rnlari ochish orqali aholi daromadini



oshirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, ya'ni inson kapitalini oshirish orqali uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga zamin hozirlashning asosiy tamoyillari belgilab berilgan. Infratuzilmani modernizatsiya qilish, transport, energetika va kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash bo'yicha ham manzilli chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, bu "inson kapitali — iqtisodiy o'sish drayveri" konsepsiyasiga to'liq mos keladi. Qarorda belgilanganidek, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishga xizmat qiladigan, hududda texnoparklar va sanoat zonalarini yaratish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ustuvor vazifalar amalga oshiriladi.

Nursulton Ashiraliyev oltin medalga sazovor bo'ldi. Davlatimiz rahbarining 2024-yil 30-sentabrdagi "Iqtidorli yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tashkil etilgan Fan olimpiadalar markazi iqtidorli yoshlarni xalqaro musobaqalarga tizimli tayyorlash, terma jamoaga nomzod o'quvchilar uchun xalqaro standartlar asosida kuchaytirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish, tayyorgarlik jarayonlariga xorijiy murabbiylarni jalb etishga xizmat qilib kelayapti. Yoshlar xalqaro muvaffaqiyatlarga erishishda ushbu markazga tayanayotgani, alohida qo'llovni o'z hayotida his qilayotgani quvonarli.

Oldingi safar xalqaro yoshlar tabiiy fanlar olimpiadasida qatnashib, kumush medal olgandim. Yaratib berilayotgan sharoitlar, o'tanam, ustozlarim qo'llovi bilan bu gal oltin medalga erishdim. Biroq bu oson kechmadi. Ayniqsa, laboratoriya bosqichi mavjud salohiyatimizni to'la ishga solishni talab qildi. Ortimizda nufuzli bellashuvga mezbonlik qilayotgan, jonajon vatanimiz, xalqimiz turgani uchun ham o'zimizda g'oliblik uchun katta kuch topa oldik, — deydi Murodbek Latipov.

Nursulton Ashiraliyev ham tayyorgarlik jarayonida chalgigan mashaqqatlar samara bergani, hammasi shaffof bo'lganidan mamnun. U yurtimizning nufuzli olimpiadalarga mezbonligi nafaqat ta'limdagi

muhim voqeelik, balki yoshlarimizning ilmiy salohiyatini ko'rsatuvchi imkoniyat ekanini alohida e'tirof etdi. Tojikistondan kelgan olimpiada ishtirokchisi Sulaymon Sharipov esa O'zbekistonni, xususan, Namanganni juda so'lim, turistik manzil sifatida kashf etgani, olimpiada qatnashchilari uchun barcha zarur sharoitlar ortig'i bilan yaratilganini aytdi. U, shuningdek, mehmondo'stlik va tashkilotchilik ishlari a'lo darajada bo'lgani, xalqaro yirik tadbirlarga mezbonlik ortidan O'zbekistonning imji oshib borayotganini samimiyat bilan gapirdi.

Davlatimiz bugun noyob iqtidor egalari, ilm-fanda o'sish istagidagi yoshlarni alohida qo'llab-quvvatlayapti. Izlanuvchan, intiluvchan o'quvchilarga berilayotgan bunday e'tibor va o'zbek yoshlarining xalqaro olimpiadalarda erishayotgan natijalaridan kelib chiqib, 2026-yilda 58-xalqaro kimyo olimpiadasini o'tkazish O'zbekistonga ishonib topshirildi.

Ishonchni oqlash yo'lida

Mazkur olimpiadani iyul oyida yuqori saviyada o'tkazish maqsadida hukumatning alohida famoyisligi qabul qilindi. Olimpiadaning amaliy bosqichi uchun zarur jihozlar sotib olindi. Chunonchi, 2024-yil Saudiya Arabistoni, 2025-yil Birlashgan Arab Amirliklarida bo'lib o'tgan

Vatan... Bu so'z tilga olinganda qalbimizda o'zgacha tuyg'u, faxr va iftixor jo'sh uradi. Zotan, Vatan — biz uchun nafaqat kindik qonimiz to'kilgan tuproq, balki ona suti bilan qalbimizga muhrlangan muqaddas bir timsol. U — ajdodlarimizning shonli tarixi, avlodlarimizning porloq kelajagi va bugungi baxtimiz beshigi.

Muqaddas burch

YURAKDAN CHIQQAN AHD

"Vatanni sevmok yimondandir" degan hikmat bor. Darhaqiqat, yurtini ko'z qorachig'idek asrash, tinchligi uchun mas'uliyatini his qilish har bir yigitning nafaqat konstitutsiyaviy burchi, balki qalb amri, vijdon ishi va or-nomusidir.

Bugun yurtimiz sarhadlarida, harbiy qasmlarda mard o'z'lonlarimiz Vatanga sadoqat qasamyodini qabul qilmoqda. Bu shunchaki tantanali tadbir emas, balki lafz, el-yurt oldidagi yuksak mas'uliyat hamdir. Qasamyod qilgan har bir askar o'z zimmasida millionlab yurdoshlari orzusini, bolalar kulguisini va onalar xotirjamligini ko'tarib turadi.

Jizzax shahri hamda viloyatning Zomin va Baxmal tumanlarida joylashgan Chegara qo'shinlariga qarashli harbiy qismlarda tashkil etilgan o'quv punktlarida dastlabki harbiy tayyorgarlik bo'yicha nazariy va amaliy ko'nikmalarni puxta egallagan yosh askarlarning Vatanga qasamyod qabul qilganliklari ham ularning yuksak sadoqati va beqiyos vatanparvarligining yorqin ifodasidir.

Bu yoshlar endi oddiy fuqaro emas — ular Vatan sarhadlarining ishonchli posbonlariga aylanmoqda. Mashaqqatli mashg'ulotlar, intizom va matonat bilan yo'g'rilgan kunlar ularni chiniquy, irodasini mustahkamladi. Har bir o'rganilgan saboq, har bir amaliy mashq



ularning qalbidagi yurtga muhabbatni yanada chuquroq jo etdi. Viloyatning chegara hududlari osoyishtaligini ta'minlash ostonasida turgan o'g'lonlar ko'ksiga qurolini mahkam bosganicha qasamyod qildi.

Ularning nigohlarida qat'iyat, qadimida esa shijoat va ishonch mujassam. Bu qasamyod oddiy so'zlar yig'indisi emas, balki ularning butun hayotini, taqdirini Vatan himoyasiga bag'ishlashga bergan muqaddas ahddir.

Shu onlarda askarlar qalbidagi ona yurtga muhabbat yanada ulg'aydi, mas'uliyat hissi yanada kuchaydi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ular endi yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi uchun o'z jonini ayamasslikka tayyor mard va jasur o'g'lonlardir. Chegaralarimiz daxsizligi, osmonimiz musaffoligi, xalqimizning erkin va farovon hayoti ana shunday fidoyi farzandlar qo'lida.

DXX Chegara qo'shinlari mas'ul xodimlari, harbiy qism qo'mondonligi, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, faxriylar hamda yosh askarlarning ota-onalari, yuqorilari ishtirokida o'tkazilgan mazkur tadbirlar yuksak ruh, ko'tarinki kayfiyat va chuqur ma'naviy mazmun bilan ajralib turadi. Ularda Vatanni qo'riqlash har bir yigit oldidagi eng sharafli va muqaddas burch ekanini alohida ta'kidlandi. Shu bilan birga, harbiy sohadagi keng ko'lami ishlovtlar, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatini yanada oshirishga qaratilgan ezuq sa'y-harakatlar xususida atroflicha fikr-mulohazalar bildirildi.

Tantanali marsh sadolari ostida saf tortib o'tgan askarlar yurtga e'tidan sadoqat va intizom timsolini namoyon etdi. Qasamyod qilib, sarhadlarimiz himoyasiga bel bog'lagan mard va jasur o'g'lonlarga DXX Chegara qo'shinlari qo'mondonining samimiy tabrigi yetkazildi.

Unda yosh askarlarga yuksak ishonch bildirilib, ularning Vatan oldidagi mas'uliyati yo'lga oq yo'l tilab qolindi.

Shundan so'ng muddatli harbiy xizmatchilar tomonidan qisqa vaqt ichida egallangan javangor tayyorgarlik darajasini namoyon etuvchi ko'rgazmali chiqishlar tashkil etildi. Himoya va hujumda qo'l keluvchi turli javangor elementlar, chaqonlik, tezkorlik va aniqlikni talab etuvchi mashqar yuksak mahorat bilan jiro etildi. Bu esa yosh askarlarning nafaqat jismonan, balki ruhan ham tayyor ekanini ko'rsatdi.

Eng ta'sirli onlardan biri esa, shubhasiz, farzandlarining harbiy qasamyod qabul qilib, yigitlik burchini ado etishga kirishganini ko'rgan ota-onalarning his-tuyg'ulari bo'ldi. Ularning ko'zlaridagi faxr, yuraklaridagi iftixor va duolarga to'la nigohi bugungi tantananing eng samimiy va beqiyos lavhasi. Chunki ular o'z farzandlarini nafaqat oilasi, balki butun Vatan himoyasiga bag'ishlagan mard o'g'lon sifatida ko'rdi.

Tantanali marosimda ishtirok etganlar orasida oddiy askarning bobosi Abduhamid Norquvvatov ham bor edi. — Bugun men uchun ham unutilmas kun bo'ldi, — dedi otaxon hayajon bilan. — Nevaramni ana shunday sharafli safda, yurt

himoyasiga shay turgan askar sifatida ko'rish yuksak iftixor. Harbiy qismda yaratilgan shart-sharoitlar, yoshlarga berilayotgan ta'lim-tarbiya, intizom va e'tiborni ko'rib, ko'nglim to'ldi.

Bu yerda farzandlarimiz nafaqat harbiy sirsarorlarni, ayni paytda mard inson bo'lishni, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishni ham o'rganmoqda. Uning so'zlarida hayotiy tajriba, chuqur ma'no va samimiyat mujassam.

Marosimda qashqadaryolik yosh askarlardan biri Azizbek Nurxonov ham qalbidan chiqqan samimiy fikrlari bilan barchani to'qlantirdi. Uning so'zlarida sodda, ammo mazmunan chuqur va ta'sirli: "Bugun men hayotimdagi eng ulug' qasamni qabul qildim. Bu nafaqat so'z, balki yuragimdan chiqqan ahddir. Shu zaminda tug'ulib o'sdim, uning har bir qarich tuprog'ini men uchun aziz. Endi esa uni himoya qilish mening burchimga aylandi. Bu mas'uliyatni chuqur his qilaman.

Harbiy qismda yaratilgan sharoitlar, boshliqlarimizning talabchanligi va e'tibori bizga katta kuch bermoqda. Biz bu yerda nafaqat qurol ushlashni, balki Vatanni chin dildan sevishtni, uni asrashni o'rganaymiz. Ayniqsa, bugungi kunda dunyodagi turli tahlikalarni ko'rib, yurtimizning tinchligi qanchalik qimmatli ekanini yanada chuqur anglayapman. Men Vatanimga sodiq bo'lishga, xalqim ishonchini oqlashga va berilgan qasamyodga umrbod vafo qilishga va'da beraman". Vatanga qasamyod el-yurtga sadoqat, mas'uliyat va fidoyilik ramzidir. Yurtimiz sarhadlarini ishonch bilan qo'riqlayotgan ana shunday jasur va mard o'g'lonlar bor ekan, osmonimiz hamisha musaffo bo'laveradi.

Farhod NE'MATOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



Klavixo Temurni katta hududlarni zabt etgan, turli mamlakatlar ustidan hukmronlik o'rnatgan jahongir deya ta'riflaydi. Sohibqiron davlatining kengligi, qo'shinlarining ko'pligi va siyosiy nufuzi alohida urg'u bilan ko'rsatiladi.

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



Klavixo Temurni xalqaro legitimlikka ega hukmdor sifatida ko'rgan. U elchi maqomida hukmdor saroyidagi qabul marosimlari, protokol va diplomatik tartibni batafsil yoritadi. Uning qaydlari mazmuniga ko'ra, Temur o'z hokimiyatini faqat harbiy kuchga emas, balki xalqaro tan olinishga ham taytangan. Saroy protokoli uning siyosiy legitimligini namoyon etgan. U Yevropa qirolliklari bilan munosabat o'rnatish orqali global siyosiy tizimga kirgan.



Amir Temur tavalludining 690 yilligi

KLAVIXO XOTIRALARIDA SOHIBQIRON GEOSIYOSATI

Davlatimiz rahbari qarori asosida har yili aprel oyini "Amir Temur oyligi" deb e'lon qilish hamda uning doirasida temuriylar davri tarixini tizimli o'rganish, ilmiy natijalarni keng targ'ib etish yo'lga qo'yilishi mamlakatimiz va mintaqamizni tarixda jahon siyosatining yetakchi hududiga aylantirgan buyuk ajdodimiz sharafini e'zozlashda haqiqiy avlodlarga xos ish bo'ldi. Zero, Sohibqiron mintaqa xalqi qudratining ramzidir.

Bu qudrat va maqomni o'tmishda ko'plab tarixchilar asarlarida e'tirof qilgan va Temur imperiyasi jahon siyosatining yetakchi kuchlaridan ekanini qayd etgan. Shunday manbalardan biri Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoning "Samarqandga — Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asari bo'lib, u XIV asr oxiri va XV asr boshida Markaziy Osiyodagi siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotni batafsil yorituvchi tarixiy manbalardan biri hisoblanadi. Bu asar faqat sayohatchi nazardan tasvirlangan voqealar to'plami emas, balki Amir Temurning davlat siyosati, markazlashuv mexanizmlari va geosiyosat strategiyasini ham tahlil qiladi.

Kundalik Samarqand saroyining arxitekturasini, ma'muriy tartib va madaniy muhitni tasvirlashi orqali Amir Temurning shaxsiy va siyosiy faoliyatini tushunish uchun muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Asar, shuningdek, temuriylar davlatchiligining keyingi davr Yevroosiyo tarixining shakllanishidagi o'rni ham ochib beradi.

Samarqand saroy arxitekturasini, binolari, bog'lari va madaniy tadbirlari Klavixoning kundaligida batafsil yoritilgan. Asarda saroydagi binolarning tarkibi, hunarmandlik va badiiy bezaklar orqali temuriylar madaniyati va estetik qarashlari namoyon bo'ladi. Saroydagi yozuvchilar, olimlar va san'atkorlar bilan o'tkazilgan tadbirlar kuzatuvchi Temurning madaniy rivojlanish va bilimga e'tiborini anglatadi.

Sayohat kundaligida saroydagi ijtimoiy iyerarxiya, xizmatchilarning vazifalari va davlat ma'muriyatining tartibi ham keng tasvirlanadi. Gap shundaki, u qayd etgan ma'lumotlar keyinchalik "Temur tuzuklari"da keltirilgan tartib-intizom qaydlariga juda mos keladi. Bu ma'lumotlar tarixshunoslikda temuriylar madaniyati va davlat boshqaruvi o'rtasidagi uzviylikni tahlil qilish uchun asosiy manba hisoblanadi. Vaqti kelib, L. Keren ham bu manbadan unumli foydalangan edi.

Muallif Temur davlati boshqaruvining asosiy jihatlari alohida to'xtalgan. Unda


harbiy qo'shinlarning tashkil etilishi, harbiy yo'nalishlar va qo'shinlarning mobilizatsiya mexanizmlari batafsil yoritiladi. Bu tartib va uning Klavixo keltirgan tavsiflari Temur davlatchiligining o'z davri tartib-mexanizmlarini aniqlashda hozirgi davr tadqiqotchilariga katta imkoniyat beradi. Buni keyinchalik Temur boshqaruvidan hayratlangan V. Cherevskiy ham ta'kidlagan edi.

Klavixo o'z kundaligida Amir Temurning Yevroosiyodagi geosiyosiy ta'sirini davrning mukammal diplomatik strategiyasi, harbiy va geosiyosiy ta'siri sifatida tavsiflaydi. Temur ma'muriyati qo'shni davlatlar bilan diplomatik munosabatlarni samarali tarzda boshqargan, savdo va strategik yo'laklarni nazorat qilgan. Sohibqironning harbiy harakatlari va g'alabalari, mintaqaviy barqarorlik va hududiy kengayishda muhim rol o'ynagan. "Hududiy kengayish" g'oyasi keyinchalik XIX asrda mashhur nemis geosiyosatchisi Fridrix Ratsel tomonidan ham Yevropaning muhim strategik nazariyasi sifatida ilgari surilgan edi. U o'z tadqiqotlarida davlatlarni tirik organizmga qiyoslab, ularning o'sish va kengayish ehtiyojini biologik jarayonga o'xshatgan. Uning



fikrlari XX asrdagi Germaniya tashqi siyosati, xususan, "Hayot makoni" ("Lebensraum") doktrinasiga katta ta'sir ko'rsatgan.

asosida kechmagan va ular muayyan geosiyosiy maqsadlar bilan amalga oshirilganini ko'rsatadi", deb yozadi. Temurning shaxsiy strategiyalari va markaziy nazorat usullari uning nafaqat mahalliy, balki mintaqaviy siyosiy yetakchi sifatida namoyon bo'lishiga yordam bergan. Bu jihatdan Klavixoning kundaligi Amir Temurning



shaxsiy siyosati va geosiyosiy ta'siri haqida tarixiy va tahliliy ma'lumotlarni taqdim etib, uning Yevroosiyo davlatchiligi tarixidagi o'rni mukammallashtiradi, Yevroosiyodagi geosiyosiy ta'sirini va mintaqaviy siyosatdagi yetakchi rolini ochishga xizmat qiladi. Shu tariqa Klavixoning kundaligi temuriylar tarixini o'rganishda, geosiyosiy tahlil va qiyosiy tarixshunoslikda qimmatli ilmiy manbaga aylanadi.

Asarda Amir Temurga nisbatan yuqori, hayrat va hurmat uyg'otuvchi baho beriladi. Asar muallifi Temurni o'z davrining qudratli va nufuzli hukmdori sifatida tasvirlaydi. Klavixo Temurni katta hududlarni zabt etgan, turli mamlakatlar ustidan hukmronlik o'rnatgan jahongir deya ta'riflaydi. Uning davlatining kengligi, qo'shinlarining ko'pligi va siyosiy nufuzi alohida urg'u bilan ko'rsatiladi. Bu orqali Temur o'z davridagi jahonning eng kuchli siyosiy arbobi sifatida baholalanadi.


Arman tarixchisi F. Metsopskiyda esa bunday strategik dunyoqarash yetishmaydi. "Temurlang va uning vorislari tarixi" ("History of Timur-Lanka and its successors") asarida u mayda qarashlar darajasida fikrlaydi. Lekin tarixda uning asari ham o'z izini qoldirdi va ayrim g'arblik tarixchilar uchun o'zlari bilmagan Temur tarixiga bo'htonlar yog'dirish manbai bo'ldi.

Klavixo asarida Temurning davlat boshqaruvi ishlarida kuchli nazorat o'rnatgani, amirlar va amaldorlardan temir intizom talab etgani qayd etiladi. Bu yondashuv "Temur tuzuklari"da ham alohida ifodasini topadi. Bu jihatdan u kuchli markazlashgan hokimiyat yaratgan, harbiy va ma'muriy tizimni qat'iy nazorat qilgan hukmdor sifatida namoyon bo'ladi. Klavixo Samarqandni Temur davrida

— Samarqand Sharq va G'arb o'rtasidagi diplomatik tugun vazifasini bajargan; — Temur o'zini faqat mintaqa hukmdori emas, balki xalqaro siyosiy tizim yetakchisi sifatida namoyon etgan.

Bu jihatdan Klavixo ham, u aytgan ko'plab elchilar mamlakatlari ham Temurni XIV—XV asrlar Yevroosiyo geosiyosiy tartibining markaziy figuralari deya tan olgan.

Kundalikda Temur jahon kuchlari muvozanatini o'zgartirgan strategiyasini ham namoyon bo'ladi. Buni muallif asarda Temurning qudrati, harbiy yurishlari va uning saltanati kengligi ta'riflarida ifoda etadi. Haqiqatan, Temur Oltin O'rda, Eron, Iroq, Shom, Kavkaz, Hindiston va Onado'li hududlarida kuchlar nisbatini o'zgartirgan, mintaqada yangi siyosiy konfiguratsiya



Asarda Temurning tashqi ko'rinishi, qabul marosimlari, harbiy tartib-qoidalari shunday bayon qilinadiki, u nafaqat hurmat, balki qo'rquv uyg'otuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Bu Temurning "Amrimdagilarni qo'rquv va umid orasida tutdim" degan mashhur so'ziga munosib ravishda muallifning ham nozikfahm diplomat bo'lganini ko'rsatadi.

dunyoning siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazi, o'z davri dunyo davlatlari elchilari keladigan nufuzli poytaxtga aylanganini bevosita qayd etadi.

Asarda Temurning tashqi ko'rinishi, qabul marosimlari, harbiy tartib-qoidalari shunday bayon qilinadiki, u nafaqat hurmat, balki qo'rquv uyg'otuvchi shaxs ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu Temurning "Amrimdagilarni qo'rquv va umid orasida tutdim" degan mashhur so'ziga munosib ravishda muallifning ham nozikfahm diplomat bo'lganini ko'rsatadi.

Shu tarzda Klavixo Amir Temurga o'z davrining eng qudratli hukmdori, kuchli markazlashgan davlat asoschisi, katta qirillishlar tashabbuskori, tartib-intizomni ustuvor qilgan siyosiy arbob deya baho bergan. Asarda tanqidchi ruh kuchli emas, aksincha, Yevropa elchisi nuqtayi nazaridan hayrat va ehtirom ustuvor. Shu jihatdan bu manba Temurning o'z davridagi xalqaro imjosi qanday bo'lganini ko'rsatadigan muhim tarixiy hujjat hamdir. Temurning Klavixo qalanga olgan ayrim xislatlari keyinchalik qator arab muarrixlari tomonidan ham qayd etiladiki, bu uni tashqaridan kuzatgan deyarli barcha uchun bir xil taassurotli shaxs bo'lganini anglatadi.

Klavixo Temurning davr geosiyosatidagi o'rni bevosita "geosiyosat" atamasi bilan emas, balki bir qator real siyosiy omillar orqali ko'rsatgan. U Temurni, avvalo, Yevroosiyo geosiyosiy markazi hukmdori sifatida ko'radi. U buni Samarqandga ko'plab mamlakatlardan turli elchilar, savdogarlar va siyosat vakillari kelishi, shu sababli yo'llar bunday tashrif vakillariga to'raligi bilan ta'kidlaydi. Bu holat quyidagi xulosaga olib keladi: — Temur davlati mintaqaviy emas, transqit'aviy siyosiy markazga aylangan;

yaratgan, uning yurishlari dunyo tarqoqligini va undagi nizolarni zaiflashtirib, yangi markazlashgan tizim va siyosiy maydon barpo qilgan. Shu nuqtayi nazardan, Klavixo Temurni "qurol va qalam (diplomatik) kuchi orqali geosiyosiy makonni qayta shakllantirgan" shaxs deya tasvirlaydi.

Klavixo Temurni xalqaro legitimlikka ega hukmdor sifatida ko'rgan. U elchi maqomida uning saroyidagi qabul marosimlari, protokol va diplomatik tartibni batafsil yoritadi. Uning qaydlari mazmuniga ko'ra, Temur o'z hokimiyatini faqat harbiy kuchga emas, balki xalqaro tan olinishga ham taytangan. Saroy protokoli uning siyosiy legitimligini namoyon etgan. U Yevropa qirolliklari bilan munosabat o'rnatish orqali global siyosiy tizimga kirgan. Shu sababli bu tavsiflar Temurni "xalqaro geosiyosiy muloqot ishtirokchisi va yetakchisi" ekanini ko'rsatadi.

Muallif Samarqandni o'sha davrning geostrategik va sivilizatsion markazi deya tasvirlaydi. Asarda shaharning obodligi, saroylar va infratuzilmasi havas bilan alohida tavsiflanadi. U Samarqandni strategik transport yo'llari tuguni, Temurni esa madaniy-iqtisodiy markaz yaratish orqali qudratni institutsionallashtirgan, geosiyosiy nufuzni faqat harbiy emas, sivilizatsion markaz orqali mustahkamlagan shaxs sifatida ko'radi. Bu holat u "qudrat geografiyasi"ni barpo etganini ko'rsatadi. Klavixoning bu qarashlari haqiqatdan xoli emas. Zero, rus olimi

A. Yakubovskiy ta'kidlaganidek, "Klavixo Temur bilan bir necha marta uchrashgan va shubhatlashgan, u haqida ko'plab hikoyalarni eshitgan, shaxsan Samarqandda va Temur davlatidagi boshqa shaharlarda bo'lgan. U ko'rgan va eshitgan barcha narsalarini kundalik shaklida yozib borgan. Klavixo juda

nozik kuzatuvchi va aqlli inson. Uning mavqei mustaqil bo'lgani uchun Temurga munosabati xolis edi. U ham Ibn Arabshoh kabi faqatgina o'z ko'zi bilan ko'rgan narsalarni emas, balki eshitgan ma'lumotlarini ham qayd etgan. Agar Ibn Arabshoh Temurga nisbatan bir oz salbiy va tarfakash munosabatda bo'lgani hisobga olinsa, Klavixo asarlarida bunday holat umuman kuzatilmaydi".

Temur kuch va diplomatiyani uyg'unlashtirgan yetakchi bo'lgan. Asarda uning haybati, qabul tartibi va harbiy intizomini qayd etar ekan, Klavixo Temur geosiyosatda ikki — harbiy qudrat va diplomatik nufuz (elchilar orqali ta'sir) mexanizmlaridan unumli foydalanishga ishora qilgan. Shu jihatdan Klavixo Temurni klassik "qattiq kuch + yumshoq kuch" uyg'unligini amalga oshirgan hukmdor ekanini yozadi.

Klavixo asari asosida Temurning davr geosiyosatidagi o'rni quyidagicha ifodalash mumkin: u Yevroosiyo yangi kuchlar muvozanatini shakllantirgan, mintaqani global siyosiy markazga aylantirgan, markazlashgan qudrat orqali geosiyosiy tartibni qayta qurgan, harbiy ekspansiya va diplomatik muloqotni birlashtirgan. Ya'ni Klavixo Temurni o'z davrining shunchaki zabtkori emas, balki geosiyosiy arxitektori deya tasvirlaydi.


Xo'sh, o'sha vaqtda Ispaniya va uning yon-atrofidagi davlatlarda ahvol qanday bo'lgan va ular nega Temurga elchilar yuborgan? Klavixo kundaligi mohiyatini anglash uchun o'sha davrdagi Iberiya yarimoroli va Yevropadagi siyosiy vaziyatni hisobga olish zarur. XV asr boshida Ispaniya yagona davlat emas edi. Yarimorolda Kastiliya, Aragon qirolliklari, Granada amirligi (musulmon davlati) hukm surardi. Klavixo aynan Kastiliya qiroli nomidan yuborilgan elchi edi. U paytda Kastiliyani Genrix III boshqarayotgandi. Ichki vaziyatga ko'ra, u feodal tarqoqlik, rekonkista (musulmon Granadaga qarshi kurash), iqtisodiy qiyinchiliklar (qora o'lat oqibatlari) ni boshdan kechirar va holdan toygandi. Tashqi vaziyatga ko'ra, yashab qolish uchun Yevropadagi katta siyosiy raqobat maydonida, Fransiya va Angliya o'rtasidagi "Yuz yillik urush"ga tortilgan va ayni vaqtda Usmonlilardan ham xavf kutardi. Genrix III ana shu uchala eng og'ir muammolar qutqulish yagona yo'lini, Klavixo aytganidek, Temur bilan "hamkorlik va ittifoqchilik" maqomiga erishishda ko'rgan. Zero, uning Klavixoga Temurdan shunday javob maktubi olib qaytish topshirig'i mohiyati shuni anglatadi. Kastiliya bu bilan o'z xalqaro nufuzini oshirishni ko'zlar, ayniqsa, urushlar vositasida bosim o'tkazayotgan Fransiya va Angliya oldida o'z siyosiy mavqegini mustahkamlashni istardi. U uchun ayni vaqtda dunyodagi eng qudratli hukmdorlardan biri bilan diplomatik aloqa o'rnatish yuksalish masalasi edi. Afsuski, keyinchalik Temur haqida tadqiqotlar qilgan Jan Pol Ru "Tamerlan" asarida Klavixo zimmasida bo'lgan bu kabi nozik vazifalarni tushuna olmag'an.

XV asr boshida Kastiliya o'z tashqi siyosatini faollashtirish bosqichidagi davlat, Temur esa Usmonlilarni mag'lub etgan, Yevroosiyo kuchlari muvozanatini o'zgartirgan, xalqaro miqyosda tan olingan hukmdor edi. Shu sababli elchilik tasodifiy safar emas, balki mukammal hisoblangan geosiyosiy qadam bo'lgan.

Yevropaliklar Temurga muayyan ma'noda dunyo hukmdori sifatida qaragan. "Dunyo hukmdori" tushunchasi o'sha davrda XV asr boshida Yevropa siyosiy tafakkurida "ilk mondializm" (umumjahon hokimiyati) g'oyasi tarkibida mavjud edi. Bunday tushunchalar odatda Sharqda ham, G'arbda ham katta imperiya asoschilariga nisbatan ko'lanilgan. Yevropada Temurga nisbatan bu atama rasman ishlatilmagan, ammo Klavixo tasvirlaridan shunday tasavvur shakllanganini ko'rish mumkin. Asarda Temur juda keng hududlar hukmdori, turli xalqlar ustidan hukm yurituvchi, boshqa hukmdorlar, elchilar uning qabulini kutuvchi markaziy shaxs deya ko'rsatiladi. Bu tasvir uni mintaqa amiriga emas, balki global ko'lamdagi siyosiy arbob ekanini namoyon qiladi.

Hozirga qadar Yevropa Temurni formal ravishda umumjahon miqyosida tan olingan buyuk hukmdor, siyosiy ta'siri butun Yevroosiyo miqyosida baholalanadigan jahongir deya muhokama qilib keladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, Temur Yevropa siyosiy tasavvurida "o'z davrining eng qudratli Sharq imperatori" va de-fakto global siyosiy markaz egasi sifatida ko'riladi.

Haqiqatan, Temur imperiyasi XIV ikkinchi yarmi — XV asrning birinchi yarmida jahon real geosiyosiy manzarasida dunyoning eng yirik hududi va harbiy-siyosiy kuchi edi. Bu hudud va kuch Janub, Sharq va G'arbdagi barcha davlatlarning siyosiy hisob-kitoblarini o'zgartirgan. Bu geosiyosiy "ta'sir markazi" mavqegini ham anglatardi. Shunga ko'ra aytish mumkinki, o'sha vaqtda Markaziy Osiyo dunyo boshqaruvchisi, yetakchi kuchi, jahon geosiyosatining eng qudratli siyosiy markazlardan biri maqomiga egalik qilgandi. Bugun bu hududda yashayotgan xalq mana shu qudratning vorislari.



Hozirga qadar Yevropa Temurni formal ravishda umumjahon miqyosida tan olingan buyuk hukmdor, siyosiy ta'siri butun Yevroosiyo miqyosida baholalanadigan jahongir deya muhokama qilib keladi. Shu ma'noda aytish mumkinki, Temur Yevropa siyosiy tasavvurida "o'z davrining eng qudratli Sharq imperatori" va de-fakto global siyosiy markaz egasi sifatida ko'riladi.

har bir viloyat va saroy markazdan nazorat qilingani, ma'muriy vakolatlar aniq tartibga solingani, Temur turli elatlarni birlashtirish orqali barqarorlikni ta'minlagani, shuningdek,

Klavixo asarini chuqur tafakkur bilan kuzatgan temurshunos olim T. Alimardonov ham buni "Amir Temurning Yevroosiyo mintaqasidagi harbiy urushlari tasodiflar

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. **Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — G-446. 30821 nusxada bosildi. **Hajmi** — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekkul Egamqulov
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100600, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.